

Baqiroq tuyaning bori yaxshi

Ular doim hamma tuyalardan keyin karvonning oxirida yurarkan. Agar karvondan biror savdogarning tuyasi yoki oti qolib ketsa aqirib karvon boshida ketayotgan sarbonga xabar berarkan.

2-bet

O'qituvchilar yig'ish bilan ovora

So'nggi paytlarda o'qituvchilar orasida videorolik yoki shunga o'xshash narsalarini "Telegram"dagi kanallarga joylab "Iltimos, menga "like" bosib yuboring" deb murojaat qilish juda avjiga chiqdi.

7-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 3-iyun, chorshanba № 18 (9291)

Xalq ziyolilari gazetasi

Xalq ta'limi vaziriga navbatdagi ochiq xat



Hurmatli Sherzod Hotamovich!
Ta'lim jarayonining **sifati va samarasi** uch asosiy komponent bilan belgilanadi:

1. Ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari.
2. Metodika (o'qituvchi bevosita dars jarayonida qo'llaydigan metodlar, o'quv adabiyotlari, materiallar).
3. Baholash tizimi.

Agar yuqorida aytilgan uch komponent sifatsiz bo'lsa, qolgan **ikkilamchi komponentlar** (texnika va

texnologiya, internet, mebel va hokazo) ta'lim sifatini ta'minlab bera olmaydi.

Afsuski, so'nggi ikki yil badalida xalq ta'limi sohasidagi jarayonlarni kuzatsak, nazarimizda, e'tibor faqat ta'limning ikkilamchi, qo'shimcha komponentlariga, xususan, **shakl va shamoyilga** qaratilib, ta'lim mazmuni va sifatini belgilaydigan asosiy komponentlar e'tibordan chetda qolib ketayotgandek taassurot qoldirmoqda.

5-bet



Test savollarini chop etishni boshladik

Davlat test markazi bilan hamkorlikda aprobatsiyadan o'tgan test savollarini e'lon qila boshladik.

Ushbu sonda **tarix, matematika, biologiya va fizika fanlaridan** test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo'lishni unutmang!



2020/2021-o'quv yili uchun mo'ljallangan tayanch o'quv reja bilan tanishib, o'zga toldim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham, o'quvchilariga ham achindim. Unda yosh avlodning savodxonligini ta'minlaydigan ikki fan qisqartirilgan. Ona tili va o'qish fanlari 3-4-sinflarda 3 soatga qisqarishi oqibatida boshlang'ich sinf o'qituvchisining ham asosiy dars soati kamayadi. Bu fanlar haftasiga 5 soatdan o'tilishi kerak aslida. Barcha fanlarning yaxshi o'zlashtirishi aynan mana shu ikki fanga bog'liq. Balki yangi o'quv yiliga taqsimot yana bir ko'rib chiqilar...
Lobar SULTONOVA

Bu yil maktabimizning ta'mirlanishi uchun ajratilgan mablag'lar Sardoba tumanidagi suv toshqini oqibatida talofat ko'rgan oilalarga yordam sifatida o'tkazilindi. Biz o'qituvchilar bundan sevindik. Jamoamiz va ota-onalar ko'magi bilan maktabimizni o'zimiz qayta ta'mirlab, yangi o'quv yiliga tayyor holatga keltirdik.

Laylo RO'ZMETOVA

Onlayn darslardan yutuqlarimiz ko'p bo'ldi deb o'ylamayman. Teledarslarni, ijtimoiy tarmoqlardagi onlayn darslarni kuzatganlar kuzatdi, kuzatmaganlar ta'tilga chiqqanday yuraverdi. Aksariyat qishloq joylarda yashaydigan oilalarning farzandlari bundan bebahara qoldi. Internet deyarli yo'q, bo'lsa ham ota-onalarning bo'sh vaqti yo'q. Mana shu tomonlarini aytmaganda, har tomonlama sharoiti bor oilalarda jarayon yaxshi kechdi. Menimcha, vazirlik tomonidan ommaviy so'rovnomma olnsa, onlayn darslarni kuzatganlar va natijalari oydinlashardi.

Sardor SAYDAZIMOV

Tayanch o'quv rejaning har yili o'zgaraverishidan charchadik. "Zavuch"imiz "Dars soatlarini bo'linglar, elektron jurnalda dars jadvali qilishni boshlaymiz", deydi. Bizning esa boshimiz qotgan. Chunki dars "setkasi" avgustga qadar yana o'zgarishi mumkin. O'quv reja tuzishda maktab o'qituvchilarining fikrlari inobatga olnsa yaxshi bo'lardi.

Shahnoza SHARIPOVA

Mualliflar va nashriyotlarni sifatli darslik chiqarishga faqat bozordagi ochiq, halol, erkin raqobat majbur qilishi mumkin.

Xalq ta'limi vaziriga navbatdagi ochiq xat

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Misol uchun, "yangi milliy ta'lim dasturi" sifatida taqdim etilishi kutilayotgan standartlar loyihalarining eskicha qolipida tayyorlanayotgani, amaldagi dasturlardan prinsipial farq qilmasligi, o'zgarishlar faqat o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzularning nomini yoki ketma-ketligini o'zgartirish bilan cheklanayotgani, "pedtexnologiya" deb faqat shaklga va o'yinlarga urg'u berilayotgani, **darsliklarning "yangi" nashrlari** metodik yondashuv jihatdan eskilaridan farq qilmasligi, Respublika ta'lim markazi saytida e'lon qilingan yakuniy nazorat savollarining eskicha "yodla-qaytarib ber" tamoyili asosida tuzilganligi fikrimizning yaqqol asbotidir. Dastur va darsliklarda O'zbekiston 2021-yildan boshlab qatnashadigan PIRLS, PISA, TIMSS singari xalqaro tadqiqotlar talablariga e'tibor qaratish talab qilinmoqda, ammo amaldagi yondashuvlar va eskicha qarashlar bilan **mazkur xalqaro tadqiqotlar talablariga javob berishning imkoni yo'qligini**, natijada o'quvchilarni xalqaro tanlovlarda kutilgan natijalarni olib bilmasligini ham tan olish lozim.

Sizning e'tiboringizni ta'lim sifatini belgilovchi muhim komponentlardan biri — **darsliklar** bilan bog'liq muammolarga qaratmoqchimiz. Maktab o'qituvchisi uchun darslik — eng asosiy vosita. **Ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida yozilgan maqsadlar darslikda o'z aksini topmasa, ular qog'ozda qolib ketaveradi**, chunki aksar o'qituvchilar standartlarni ochib ham qarashmaydi, faqat darslik bilan ishlaydi. "Transmissiya pedagogikasi" (ya'ni **o'quvchidan faqat berilgan ma'lumotni yodlash va qaytarishni talab qilish**) asosida tuzilgan, o'quvchilarda tanqid fikrlash va tahlil, ijodiy yondashuv, hamkorlikda ishlash singari hozirgi zamon uchun kerakli kompetensiyalarni rivojlantira olmaydigan **darsliklar** bilan kelajakda yangilik yaratib, yurtning iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik rivojlanishini ta'minlaydigan avlodni tarbiyalab bo'lmaydi. Katta-katta mablag'lar hisobiga "yangi", "qayta ishlangan nashr" deb taqdim qilinayotgan darsliklarda asosiy e'tibor faqat oldingi nashrlardagi yaqqol faktologiya va uslubiy xatolarni to'g'rilashga yoki bir mavzuni boshqasi bilan almashtirishga qaratilib, metodik yondashuv esa o'sha-o'shaligicha qolmoqda. Natijada darsliklari sifati haqida matbuotda qayta-qayta yozilishiga, bu masala Senatda ko'rilishiga, hatto davlat rahbari tomonidan ko'tarilishiga qaramasdan (Prezidentimiz kuni kecha Sirg'ali tumaniga tashriflari davomida bu masalani yana ko'tardilar), muammo o'z yechimini topmay kelayotir.

Nazarimizda, darsliklar muammosining eng asosiy sababi monopoliyadir. **Halol, ochiq raqobat bo'lmagan joyda, iste'molchida tanlash huquqi bo'lmagan joyda sifat bo'lmasligi — oddiy haqiqat.** Darsliklarni yaratish va chop etishning amaldagi tizimi sifatni ta'minlab bera olmaydi (*gazeta.uz* nashrida rus va o'zbek tillarida chop etilgan "Быль вы выбор" ("Tanlash imkoniyati bo'lganida edi") maqolasi bu holat batafsil tahlil qilgan). Afsuski, ko'p davlatlarda muvaffaqiyat bilan ishlayotgan, hatto Rossiya, Qozog'iston, Ukraina singari post-sovet davlatlarida ham xilma-xil va sifatli dars-

liklar yaratilishiga olib kelgan **erkin raqobat tizimiga o'tish o'rni**ga:

- **normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari** portalida e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasida Respublika ta'lim markaziga "darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha muallif va tuzuvchilarni tanlash, yaratilgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni ekspertiza qilish, tajriba-sinovdan o'tkazish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar berish", "darsliklar va o'quv-metodik majmualarning asl nusxa maketlarini yaratish va ko'paytirish" singari vazifalarni yuklash orqali **mavjud monopol tizim** yanada mustahkamlanmoqda. Qaror loyihasida darsliklar **mualliflarini tanlash mexanizmlarini shaffoflashtirish, subyektivizmining oldini olishga qaratilgan** normalar esa kiritilmagan;

- Respublika ta'lim markaziga ham darsliklar yaratishni tashkil qilish va bu jarayonda yaratilgan darsliklarga baho berish, ham muqobil darsliklarni ekspertiza qilish huquqini berish orqali **manfaatlarga to'qnashuviga** zamin yaratilmoqda va kelajakda sifatli darsliklar paydo bo'lishi uchun g'ov qo'yilmoqda;

- **muqobil darsliklar bilan bog'liq mavhumliklar va muqobil darsliklarni yaratuvchi jamoalar uchun katta moliyaviy xarajatlar** har qanday ijodiy jamoaning hafsalasini pir qilmoqda (bu haqida "Ishonch" gazetasining 30-may kuni sonida chop etilgan va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilyotgan "Aytсам tilim kuyadi, aytmasan...: Xalq ta'limi vaziriga ochiq xat" nomli maqolada batafsil yozilgan);

- darsliklarni chop etish huquqining faqat **maxsus ruxsatga ega bo'lgan tor doiradagi nashriyotlarga** berilishi mualliflar jamoalari oldidagi yo'llarni tamomila yopmoqda (hamkasblarimiz bilan ikki yillik mehnatimiz samarasi bo'lgan va ijodiy e'tiroflarga sazovor bo'lgan darsligimizni "mualliflar kompyuterlarida qolib ketmasin, kimgadir foydasi tegsin", degan maqsadda o'z hisobimizdan, cheklangan nusxada bo'lsa-da, chiqarish uchun xususiy nashriyotlarga murojaat qilganimizda xuddi shu sun'iy yaratilgan va aylanib o'tish imkonsiz bo'lgan to'siq yo'limizni yopdi).

Erkin raqobat muhitida sifatli darsliklar paydo bo'lishiga zamin yaratilishi uchun, nazarimizda, quyidagi **qadamlar** qo'yilishi lozim:

- amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, **darsliklar sohasida erkin raqobatni cheklaydigan, manfaatlarga to'qnashuviga zamin yaratadigan normalardan** voz kechish lozim — mualliflar va nashriyotlarni sifatli darslik chiqarishga faqat bozordagi **ochiq, halol, erkin raqobat** majbur qilishi mumkin, bundan boshqa mexanizm mavjud emas;

- darsliklarga qo'yiladigan **aniq talablarni** ishlash chiqish va bu talablarni vazirlik saytida e'lon qilish lozim — talablar darslik mualliflarining **metodik va ijodiy** erkinligini cheklamasligi, mualliflar jamoasi o'quvchilarni standartda belgilangan maqsadlarga olib chiqish yo'llari va vositalarini tanlashda erkin bo'lishlari kerak;

- darsliklarni ekspertiza qilish jarayoni **protsedurasi va mezonlarini** ishlash chiqish, ularni ham vazirlik saytida e'lon qilish lozim — ekspertiza xolis va shaffof bo'lishini ta'minlash uchun jarayonga olimlardan tashqari, o'qituvchilar va metodistlarni ham jalb qilish, ekspertizada qo'lyozmaga berilgan har bir baho **asoslangan bo'lishini** nazorat qilish kerak;

- nashriyot yoki mualliflar saytida e'lon qilingan talablarga mos keladigan darsliklar qo'lyozmalarini muntazam ravishda vazirlikka **ekspertiza** uchun taqdim qila olishlari lozim — raqobat ochiq va halol bo'lishi uchun jarayonga **barcha noshirlar yoki istagan ijodiy jamoa** qatnasha olishi, jarayon ortiqcha **byurokratiya va moliyaviy to'siqlardan** xoli bo'lishi, **vazirlik yoki uning tizimidagi tashkilotlar esa darslik yaratish bilan shug'ullanmasliklari** kerak;

- vazirlikka ekspertiza uchun kelib tushgan darsliklar qo'lyozmalari ko'rib chiqilishi va talablarga javob beradigan darsliklarga "o'quv jarayonida foydalanishga **ruxsat berildi**" grifi berilishi lozim — bunda qo'yilgan talablarga javob beradigan **barcha darsliklar** "grif" olishi, ya'ni har bir sinf va fan uchun bir qancha darsliklar bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratish kerak (bu jarayonda xorijiy mualliflar/noshirlar yoki ularning vakillari ham qatnashishi mumkin);

- talablar javob bermaydigan darsliklar qo'lyozmalari **konkret kamchiliklari** ko'rsatilgan holda mualliflarga/noshirlarga **qaytariladi** va mualliflar/noshirlar kamchiliklarni to'g'rilagan holda qayta ekspertiza uchun taqdim qilish huquqiga ega bo'ladi, bunda oldingi xulosada ko'rsatilmagan kamchiliklar qo'lyozmani **qayta rad qilish** uchun asos sifatida keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- vazirlik grifini olgan darsliklarni nashriyotlar mustaqil chop etib, **erkin savdoga** chiqaradilar;

- maktablar o'quv jarayonida ruxsat berilgan o'quv adabiyotlaridan qaysilarini ishlatishni **mustaqil hal** qiladilar.

Jarayonni osonlashtirish maqsadida vazirlik saytida "darsliklar" maxsus platformasini ishga tushirish mumkin. Bu platforma noshirlar va mualliflar jamoasi uchun barcha kerakli ma'lumotlar (darsliklarga qo'yiladigan talablar, baholash mezonlari, qo'lyozmalarni vazirlikka taqdim etish mexanizmlari) joylashtirilishi, shuningdek, barcha grif olgan darsliklar haqida ma'lumotlar va tanishib chiqish uchun ularning elektron nusxalari (mualliflik huquqlari egalari ruxsati bilan) joylashtirilishi, maktablar uchun kerakli darsliklarni tanlash va nashriyotlar bilan bog'lanib, darsliklarga buyurtmani shakllantirish imkoni yaratilishi mumkin.

Mavjud monopol tizim tarafdorlari taklif qilinayotgan tizimda darsliklar narxi qimmat bo'lishi va hamma oilalar ham darslik sotib olishga imkoni bo'lmasligini e'tiroz sifatida keltirishlari mumkin. Buning yechimi sifatida quyidagi firlarni keltirishimiz mumkin:

Birinchidan, nashriyotlarga darslik chop etish bilan bog'liq litsenzion **cheklovlarni** olib tashlash va bolalar adabiyoti noshirlari uchun beriladigan **imtiyozlarni** darsliklar chiqaruvchi nashriyotlarga ham tatbiq etish orqali darsliklar tanarxini tushirishga erishish mumkin. Bozor sha-

roitida **raqobat** muhiti narxni haddan ziyod ko'tarishga imkon bermaydi — hech qaysi nashriyot kitobining qimmatligi sababli sotilmay chang bosib yotishini istamaydi.

Ikkinchidan, o'quv rejaralari qayta ko'rib chiqish, ayrim fanlarni integratsiyalash (birlashtirish), ayrim fanlarda o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablarni qisqartirish, shuningdek, bitta fandan 2-3 yil davomida foydalanish mumkin bo'lgan darsliklar yaratish orqali har bir sinf uchun kerakli darsliklar sonini **optimalashtirish** mumkin.

Uchinchidan, kam ta'minlangan oilalar farzandlarini darsliklar bilan ta'minlash maqsadida, maktablar tanlagan darsliklarni nashriyotlardan **maktab kutubxonalariga** sotib olish uchun homiylarni, budget va budgetdan tashqari mablag'larni jalb qilish, kitob jamg'armasi orqali **ijaraga** berish mumkin.

To'rtinchidan, amaldagi tizimda barcha birday **sifatsiz** darsliklar bilan ta'minlanmoqda, imkoniyati bor o'ta-onalar, maktablar esa farzandlarining ta'limi uchun **xorijda** (xususan, Rossiyada) yaratilgan darsliklardan yashirincha bo'lsa-da sotib olib berishmoqda va foydalanishmoqda — bu amaldagi tizim "ijtimoiy adolatsizlikni ta'minlab berishi" haqidagi argumentni butunlay chippakka chiqaradi.

"Darsliklar ko'p bo'lsa, hamma har xil darslikdan foydalanasa, **Davlat test markazi kirish testlarini** qanday tuzadi?" degan savol ham o'rtaga tashlanishi mumkin. DTM testlari maktab bitiruvchilarining darsliklardagi ma'lumotlarni yod olishini emas, standartda belgilangan kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini tekshirishi kerak. Agar **xotirani** tekshirish amaliyotidan voz kechilib, kompetensiyalarni tekshirishga o'tilsa, o'quvchida bu **kompetensiyalarni** shakllantirishda qaysi darslik ishlatilganligi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Yana xorij tajribasiga murojaat qilsak: Rossiyada har bir fan uchun vazirlik tasdiqlagan darsliklar ko'p bo'lishiga qaramasdan, maktab bitiruvchilari bir xilda Yagona davlat imtihoni topshirishadi. Demak, darsliklar tizimida haqiqiy raqobat va variativlikka yo'l ochilishi ta'lim tizimini orqaga tortayotgan muammolardan biri — xotira testlarining barham topishiga ham o'z hissasini qo'shadi.

Nazarimizda, shuncha yil sifatini ta'minlab bera olmagan tizimni "zo'rash", "bo'yab-bejab" undan yangilik kutish mantiqsizlikdir. Undan ko'ra bugun ta'limi rivojlangan mamlakatlar bosib o'tgan va samaraliligini vaqt isbotlagan tizimni hech bo'lmaganda bosqichma-bosqich joriy qilish, bu jarayonni bugundan **boshlash** kerak. Bunday islohotlar boshida kimgadir qiyin ko'rinishi, mavjud tizimga o'rganib qolgan va uni "shaxsiy tomorqasi"ga aylantirganlarning qarshiliklari bo'lishi tabiiy. Biroq **farzandlarimiz sifati, zamonaviy metodika talablariga javob beradigan kitoblardan foydalanishlarini istasak, mana shu yo'ldan borishimiz lozim**, aks holda o'z qo'big'imizga o'rilib, Rahbarimiz maqsad qilgan manzillarga yetolmaymiz.

Zulxumor MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori
Komil JALILOV,
London Universiteti Kolleji
Ta'lim instituti magistri

Qonimizga singib ketgan bir tushuncha haliyam odamlarning chuv tushishiga sabab bo'lmoqda. Avvallari oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda poraxo'rlik avj olgan, kimdir kimgadir vositachilik qilib, kimnidir o'qishga kiritib qo'yardi. Ammo oliy ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida, bu kabi noqonuniy ishlar barham topdi, deb ayta olamiz.

Firibgar kam, ularga ishonadiganlar-chi?

Ammo xalqimiz orasida haliyam firibgarlarga chuv tushadigan, aldanadigan odamlar uchrab turishi g'alati.

G. N. ham bolalikdagi orzusi — huquqiy yo'nalishda ta'lim olish uchun Farg'ona yuridik kollejiga o'qishga kirmoqchi bo'ldi. Ammo u firibgarning tuzog'iga tushib qoldi.

Voqea shunday bo'lgandi. Abdulaziz Nazarov Farg'ona yuridik kollejining ikkinchi mutaxassislik bo'yicha o'quvchisi. U G.N.ga mazkur kollejning "ijrochi yurist" yo'nalishiga o'qishga kiritib qo'yishni va'da beradi. Va hozirgi kunda kollejga o'qishga kirish narxi 2000 AQSh dollari bo'layotganini aytadi. Ular Qo'qon musiqali drama teatri oldida uchrashishadi. Abdulaziz avvaldan kelishib qo'ygan bir o'rtog'iga qo'ng'iroq qilib, go'yoki G.N.ning o'qishga kirishini naqd qilib qo'yadi.

Ammo G. 2000 AQSh dollari topa olmaydi. U Farg'ona viloyati iqtisodiy jinoyatlar qarshi kurash departamenti Buyayda tuman bo'limiga murojaat qiladi. Maxsus ishlov berilgan pulni Qo'qon musiqali drama teatri oldida olgan Abdulazizni departament xodimlari qo'lga oladi.

Sudlanuvchi Abdulazizxon Nazarov O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 1-qismi va 28-, 211-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Unga O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 1-qismi bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadida hisobiga ushlab qolgan holda ikki yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 28-, 211-moddasi 1-qismi bilan uch yil muddatga sutkaning soat 21:00 dan soat 06:00 gacha bo'lgan vaqtda yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Ahadjon ISROILOV,

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamenti Buyayda tuman bo'limi mutaxassisi

Tajriba

Amaliy saboq va rag'bat

Xorijiy tajribalarni kuzatsak, chet tili o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi bo'yicha eng yuqori natijani Finlandiya davlati qayd etgan. 5,5 million aholi istiqomat qiladigan mazkur mamlakatda ta'lim tizimiga yiliga 11,1 milliard yevro mablag' ajratiladi. Bu davlat Education First kompaniyasi tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan "Chet tilini yaxshi biluvchi xalqlar" reytingida 4-o'rindan pastga tushmaydi.



Finlandiyada o'quvchilarga ta'lim berishda ko'proq amaliy mashg'ulotlar, jumladan, o'qitishda noan'anaviy dars metodlaridan samarali foydalaniladi. Konferensiya-dars, tok-shou, teleko'priklar-dars (videokonferens aloqa yordamida mamlakatning boshqa chekkasidagi xuddi shunday mavzu o'tayotgan sinf bilan bog'laniladi), suhbat, ekskursiya, virtual sayohat darsi, sahnali dars kabi usullarni misol sifatida keltirib o'tish mumkin.

Biz ham darslarda ko'rgazmalar va qo'shimcha texnik vositalardan ko'proq foydalanishimiz kerak. Masalan, "Kids' English"

kitobida "My hobby" (mening sevimli mashg'ulotim) mavzusi-da avval tinglash va takrorlash, gaplarni o'qib rasimga mosini tanlash, mavzuga oid suratlar chizish va yozish, "Poezdlar" o'yinini o'ynash, "Ww" harfini yozish, matnga mos keluvchi gapni yozish kabi sinf mashqlari berilgan. Agar bir mavzu doirasida darslikda berilganidek yetti-sakkiz xil qiziqarli mashq bajarilsa, bola ko'p ma'lumotga ega bo'lishi va til bilishga ishtiyoqi ortishi kerak. Lekin amalda faqat o'yin va musiqiy tanaffusdagi so'zlarni takrorlash yaxshi natija beradi. Rasmlar bilan ishlash va so'zlardan gap tuzishni

so'raganimizda, talab darajasida javob berolmaydi. Demak, chet tili darsida darslik va multimedia vositalaridan yetarlicha foydalanilmaydi. Gohida o'qituvchining boshqa yumushi borligidan ikki guruhga, ya'ni 40 nafar o'quvchiga bitta chet tili o'qituvchisi dars o'tgani ko'p kuzatilgan.

Odatda nutqni rivojlantirishda "Rol ijro etish" usulidan ham foydalanaman. Bu o'quvchining darsga qiziqishini oshiribgina qolmay, ulardagi yashirin qobiliyatni kashf etishga ham yordam beradi. Hatto sinfdagi eng sho'x, eng passiv o'quvchi ham rol ijro etishda ijobiy ma'noda faollashadi. Biror qo'shiqchi yoki ertak qahramoni obraziga kirish orqali o'zidagi tortinchoqlikni bartaraf etadi. Taqdimotdan so'ng unda ijodkorlik hissi uyg'onadi.

Shuningdek, "Qayta hikoya qilish", "Rasm tasvirlash" metodlari ham o'quvchilarda chet tiliga qiziqishni oshiradi. Ushbu metodlardan foydalanish bilan birga sinfxonada zarur muhit yaratish, savol, topshiriqlarni aniq va maqsadli berish, o'quvchini rag'batlantirib, ishtiyoqini oshirishga e'tibor qarataman. "Taqdimoting ajoyib chiqdi!", "Sen buni eplaysan!", "Albatta g'olib chiqasan!" kabi rag'batlar sinfda doimo yangrab turishi sog'lom muhitni shakllantiradi.

Dilnoza ALIMOVA,
Toshkent shahridagi
235-maktab o'qituvchisi

Ko'cha-ko'yda, do'kon peshtaxtalarida, afishalarda xato yozilgan o'zbekcha so'zlarni ko'rib g'ashing keladi, yozgan odamni savodsizlikda ayblaysan. 1-2 xatoni aytib, to'g'rilatish mumkin. Lekin bunday xatolar ko'plab ushrasa-chi? Unda nima qilish kerak? Bu muammoning ildizini umumiy o'rta ta'limdan izlash lozim. Chunki umumiy o'rta ta'limda barcha bilimlarning tamal toshi qo'yiladi. Maktabda ona tili darslarida o'quvchilar xatosiz va chiroyli yozishga o'rgatiladi.

Lekin hozirgi kunda sinflarda 30-35 o'quvchi bo'lgani holda hamma o'quvchilarni xatosiz yozadigan qilish ona tili o'qituvchilariga qiyinchilik tug'diradi, albatta. Shu bois ona tili darslarini xuddi rus tili, chet tili darslari kabi o'quvchilarni 2 guruhga bo'lib o'qitish lozim. Chunki hech kim o'z ona tilini yaxshi bilmasdan turib, o'zga tillarni puxta o'rgana olmaydi.

Ona tili darslari savodli yozuv darsi hisoblanadi. Shuning uchun ham darsda yozma ishlarga alohida e'tibor beriladi. Darsning uchdan ikki qismida o'quvchilar grafik, orfografik va nutqiy yozma ishlarni bajaradilar. Shu sababli grammatik, orfografik bilimlarni o'zlashtirish uchun qunt bilan ishlashga to'g'ri keladi. Ba'zan o'quvchilar o'z fikrini yozma bayon qilganda, diktantda imloviy, uslubiy va tinish belgilarida xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu xatolar quyidagilardan iborat:

1. Bosh harflar imlosida.
2. X va h harflari imlosi, harf belgilarida.
3. Bo'g'in ko'chirish qoidalarida.
4. Tutuq belgisining ishlatilishida.
5. Asos va qo'shimchalar imlosi.
6. Qo'sh va qator undoshli so'zlarda.
7. Tushum va qaratqich kelishikli qo'shimchalarda.
8. Olinma, shevaga oid so'zlarda

Yozma ishda xatoga yo'l qo'yayotgan, bilish zarur deb qaralgan biror mavzuni yaxshi o'zlashtirmagan yoki tushunmagan o'quvchi, doimiy ravishda tovushlarni almashtirib yoki xato gapiradigan o'quvchi, ota-onasining ish faoliyati taqozosi bilan bir qancha maktablarda ta'lim olib kelayotgan bo'lishi mumkin. Bunday o'quvchilar ustozining tuzatishlariga albatta e'tibor bilan qaraydi. Biroq bu "ko'zdan kechirish" keyingi gal shu so'zni xatosiz yozishiga asos bo'lolmaydi.

Savodxonlik maktabdan boshlanadi



natijasi shu onda ma'lum qilinadi.

Kuzatishlardan ma'lumki, birinchi galda darsda o'quvchilarning osoyishta va mustaqil ishlashlarini ta'minlagan o'qituvchi ularning savodxon bo'lishiga erisha oladi. Yana o'quvchilar savodxonligini oshirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Har bir o'qituvchi va o'quvchilarda imlo lug'ati bo'lishiga erishish.
- Imlo qoidalarini puxta, lug'at diktantlarni tez-tez qisqa muddatli qilib olib turish.
- Badiiy asarlar o'qishdga o'quvchilarda qiziqish uyg'otish.
- O'quvchilarni xuddi chet tili darslaridagi kabi 2 guruhga bo'lib o'qitish.

Zulfiya YUSUPOVA,
Farhod RAJABOV,
Shovot tumanidagi
23-maktab o'qituvchilari

AKT orqali ham o'quvchilar savodxonligini oshirish mumkin. Bunda "Chaqqon qo'llar" interaktiv usuli tavsiya qilinadi.

Diktantni kompyuterda o'tkazish. Bunda belgilangan muddatda harflarni to'g'ri terishi, nechta so'z hosil qilishi tekshirilib, baholanadi va o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar uchun jarima soni ko'rsatiladi. Natijada o'quvchida harflarni to'g'ri tanlay olish va tez yozish malakalari shakllantiriladi.

Demak, bu jarayonda o'quvchining topshiriqlar asosida bergan javoblari

"Kamni bersang ham g'amni berma".

O'qituvchi minbari

Bobolar so'zining umri boqiydir

So'zda sehr bor, joziba bor. Uning sehri shu darajadagi, kishini lol-u hayron qilishi, hayratga solishi, gangitishi, ranjitishi, xursand yo xafa qilishi, kasallikka muhtalo etishi yoki aksincha bemorni oyoqqa turg'azib yuborishi hech gapmas. Inson muomalasini so'z vositasida ifoda qiladi.

Bundan boshqa vositalar so'zchalik tugal mazmun kasb etmaydi. Deylik, mumolada imo-ishoralar, xatti-harakatlar, ko'z ifodalari ham so'z darajasidek quvatga ega emas. Birgina "ha" yoki "yo'q" tasdiq va inkor so'zlari orqali tugal tasdiq va inkor ma'nolari anglashiladi. Bu mazmunlarni boshni irg'atib yo chayqab ham ifodalash mumkin, ammo anglashiladigan ma'no ohang beradigan "ha" yoki "yo'q"chalik jaranglamaydi, kishida kuchli ta'sir qo'zg'atmaydi.

So'z hayrat manbai dedik, sehr kuchiga ega dedik. Ayni shu ta'sir kuchlari otalar aytadigan so'zlarda mujassamdir. Ota-bobolarimiz juda katta hayot tajribasiga egaki, ular o'zlashtirgan turfa so'z va iboralar, naql-u hikmatlarning hammasi ham kitoblarda uchrayver-

maydi. Diqqat qiling-a: "Kamni bersang ham g'amni berma", "Qadam yetdi, balo yetmasin", "Omonlik, tugallik bo'lsin, serrizq-serdavlat bo'lsin"...

Oppoq soqoli ko'ksiga qadar tushgan nuroniy bobolarimiz qayerda bo'lishmasin, ilohiylikka yo'g'rilgan, qalbga allaqanday surur, sokinlik, halovat indiradigan shu kabi so'zlarni ko'p aytishadi. Biz duotalab farzandlar ham biror ishga kirishishdan avval yo biror joyga borishdan oldin keksalarimizdan ixlos-la duo qilishlarini so'raymiz. Nega? Negaki, oq soqolli, nuroniy bobolar tilagi ijobatiga ishonamiz. Ayni shu tilaklarning ruhi va nuri so'nmasligini, ular doimiy ilohiylikka qorishganini, shunchaki til uchida aylanadigan so'zlar emas, balki dil tubidan otilib chiqadigan ulug' kalomlar

ekanini ham anglaymiz.

Ota-bobolarning ezgulik va xayr yo'lidagi duolari qatori ular shu paytga qadar turmush va ijtimoiy hayotda qo'llab kelgan oltinga teng hikmatlar, naqlar, maqollar borki, bugungi kunda ular madaniy qadriyatimizning bir bo'laga, xalq og'zaki ijodiyotining noyob namunalari aylanib ulguragan. Ayni damda zamonaviylashib, o'zga tillar ta'siriga berilib, sof o'zbek tili imkoniyatlari va uning boy qatlamidan bexabar qolayotgan ayrim yoshlar uchun bu ayni muddaodir.

Azaldan Sharq donishmandlik o'chog'i bo'lib kelgan. Ayni shu qutb falsafasi odamiylik ilmi borasida mukammallikka ega. Binobarin, bugunga qadar donishmandlik rutbasiga ega bo'lgan ota-bobolar o'z farzandlarini ham mana shu maqomda, ruhda tarbiyalaganlar. Oriyatilik, mardlig-u jasorat bobida o'rnak bo'lganlar, andisha, tavoze, halol-u haromdan saboq berganlar. Bunda so'z birlamchi rol o'ynagan albatta. Ammo bugun taraqqiy etib bo-

rayotgan jamiyatda biz texnika kashfiyotlariga sehiranib qolganimiz uchun ham qalbgah ruh va nur indiradigan, chin insoniylik saboqlarini beradigan, asl hayot falsafasi sanalgan ana shu nodir durdonalardan uzoqlashayotgandekmiz. Qadimiy va bebaho hisoblangan ota-bobolarimiz so'zlarini unutib bormoqdamiz. Xalq hikmatlari, xalq maqollarini o'qimay qo'ydik. Kitobdan tobora uzoqlashib, internet asiriga aylandik. Aksariyat vaqtimiz ham virtual olamda kechayotir. Oqibat-chi... Endi do'ppini bir joyga qo'yib, fikrlash fursati keldi. Tafakkur qilaylik, tanamizga o'ylab olaylik. Asriy qadriyatlarimiz, durdonalarga teng ma'naviy boyliklarimiz, hikmat-u falsafalar koni bo'lmish xalq so'zlariga yana qaytaylik. O'qiylik, yod olaylik. Axir, so'z nafasi bilan ulg'aydik, so'z nafasi bilan kamolga yetayotirmiz. Har birimiz o'z so'zimizga ega bo'lishimiz uchun ham moziyga — asl poydevorga nazar solaylik. Otalar so'zining salmog'i og'ir. Otalar so'zining mag'zi to'q. Otalar so'zining umri boqiy. Axir bejiz "Otalar so'zi — aqlning ko'zi" deyishmaganda.

Umid KO'CHIMOV,
Urugut tumanidagi
98-maktab o'qituvchisi

O'quvchining ko'ngil olami

Qalbi his-hayajonlarga limmo-lim bo'lgan bolaligi haqida qog'oz qoralamagan ijodkor bo'lmasa kerak. Yetmishinchi yillarda sobiq tuzumning qop-qora partalarida javobgar kishidek ilk bor harflarni hijjalab saboq olgan kunlarimiz bilan bog'liq xotiralarimiz poyoni yo'qdek. Qishi bilan chakka o'tib, sira ilimaydigan sinfxonimizda orzular og'ushida garq bo'lganmiz.

Ustozimiz Toshmirovning jonini jabborga berib so'zlagan so'zlari bir umr qalbimizda muhrlangan. Erta bahordan kech kuzgacha, ustoz Abdulla Orifning ta'biri bilan aytganda, paxta dalalariga sochilib ketgan o'quvchilarning arziholini tinglaydigan mard yo'q edi. Yodimda, o'shanda to'rtinchi sinfdan o'qirdik. Noyabr oyining izg'irinli kunlari ship-shiydam dalaga so'nggi chanoqlarni terish ilinjida jalb qilinganmiz, yomg'irlardan shalabbo bo'lgan usti-boshimizni ko'rgan ustozimiz dala boshida olov yoqib, galma-gal qo'lchalarimizni ilitib olishimiz uchun imkon yaratgandi. Kutilmaganda paydo bo'lgan "kattakon"larning qop-qora mashinasini ko'rgan ustozimning rangi paxtadek oqardi. O'shanda mashinadan tushgan "katta" shasht bilan ustozimiz yoqqan olovni oyog'i bilan tepkilarkan, dedi:

— Biz bolalarni dalaga isitish uchun emas, paxta terish uchun chiqarganmiz. Siz bugungi qilgan ishingiz uchun kechqurun "shtab"da javob berasiz...

O'shanda dono ustozimizning boshi egilgan edi. U kishi negadir "katta"ga biror og'iz gap aytmad. Bizning esa ustozga rahmimiz

keldi... Har kuni bolakaylarning sevimli minbari bo'lgan "Lenin uchquni" gazetasida baxtli bolaligimiz haqida tinimsiz she'r-u maqolalar chiqardi.

Keling, yaxshisi 1974-yil 2-noyabr shanba kuni chiqqan "Lenin uchquni" gazetasidagi "Biz ham kichik paxtakor" nomli maqolani birga o'qiylik: "Fotimaxon Po'latovani Farg'ona rayonidagi 49-maktab o'quvchilari himdat bilan chevar terimchi, deyishadi. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, Fotimaxonning shu kungacha tergan paxtasi 3 tonnadan oshib ketdi. Shunday bo'lsa-da, kichik paxtakorning paxtazordan chiqqisi kelmaydi. Kolxozchi ota-onalarimizning mashaqqatli mehnatlari bilan yetishtirilgan "oq oltin"ning bir gramini ham nobud qilmay terib olsak, deydi".

Mana, sizga o'sha mudhish davrimning zug'umi! 2-noyabrgacha uch tonnadan oshiq paxta tergan o'quvchi qiz Fotimaxonning "daladan chiqqisi yo'q" emish. Uning daladan chiqqishiga yo'l qo'yilmayapti, desa to'g'ri bo'ladi...

Bugun o'quvchilar uchun hamma sharoitlar bor. Hozir aytgan so'zlarim ular uchun ertak-ka o'xshaydi. Bugun davlatimiz

rahbari barcha e'tiborni yoshlarimizga qaratmoqda. Respublikada bir nechta ijod maktablari ochildi. Farzandlarimizning o'qib, ijod qilishiga hisobsiz sharoitlar yaratilgan. Ammo shunga qaramay bugungi o'quvchi bu imkoniyatlardan qanday foydalanyapti? Ularning qo'lga ijod minbari bo'lgan nashrlar yetib borayaptimi? Ustozlardan bu haqida so'raganimizda, ular yelkasini qisib gazetaga obuna bo'lish, uni o'qish majburiy emas, deyishadi. Qiziq, davlatimiz rahbari barchani kitobxonlikka dav'at qilib turgan bir paytda, bu fikrni qanday tushunish mumkin? Har bir o'quvchining qo'lida qimmatbaho telefon borligi kishini o'ylama toldiradi. Barcha xabar va ma'lumotlar telefonning ichida tiqilib yotibdi-ku, deyish mumkin. Ammo internet kitob va gazeta o'rmini bosolmaydi. Kitob va gazetada har bir so'z yetti o'lehab kesiladi. U o'quvchini fikr-mulohaza qilishga undaydi. Zero, erta bahordan dalasiga ketmonini ko'tarib borgan dehqonning maqsadi yerga urug' qadab undan yuqori hosil olishdir. Ustoz va o'quvchilar maktabga, albatta, kitob va gazeta ko'tarib borishi kerak. O'quvchilar o'zlarining minbari bo'lgan "Tong yulduzi", "Klass" gazetasini yoki "G'uncha", "Gulxan" jurnalini o'qisa va unga o'z fikr-mulohazasini bildirsa, buning nimasi yomon? Har kuni tahririyatimizga o'nlab ijodkorlar eshik qoqib kirib ketadi. Ularning maqsadi o'zlarining yozgan qoralamalarini

kingadir ko'rsatib, to'g'ri yo'l so'rashdir. Biz so'z izmida yurgan ijodkorning so'zini qadrlaymiz. Negaki, ular borliqqa oshiq bo'lib, Vatan suratini chizishga uringan yosh qalamkashlardir. O'zim ham 8-sinfda o'qib yurgan kezarim ilk she'rlarimni qog'ozga tushirganman. Ana o'shalardan biri "Bodomginam" nomli she'rimdir. Surxonda bodomlar har yili qishning o'rtasida gullaydi. Ular ishonuvchan daraxt, quyosh charaqlab chiqsa bahor keldi deb o'ylashadi. Bir kuni otam "Buncha ishonuvchan bo'lmasa bu daraxt...", deya uni kesib tashlashga qaror qildi. Bu holatdan qattiq ta'sirlanganim bois qo'limga qalam olib she'r yozgandim. So'z yurakdan quyilib keldi.

Bugun o'ylasam, qalbmida tabiatga bo'lgan mehri adabiyot uyg'otgan ekan. Hayotda birovlarining shirin so'ziga ishonib noto'g'ri yo'llarga kirib borayotgan yoshlar qancha? Ularning mening bodomginamdan qayeri kam deb o'ylaysiz? Qalbida tabiatga nisbatan rahm-shafqat uyg'ongan kishining qo'lidan yomonlik qilish kelmaydi. Balki unday odamlar umrini Vatanni obod qilishga baxsh etsa, ajabmas...

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bundan ellik yil burun "Lenin uchquni", hozirgi "Tong yulduzi" gazetasida "Xayrullaning komandasi" nomli she'ri chiqqach, yuzlab o'quvchilardan xat olib, behisob do'st orttirganini hanuzga-

cha orziqib eslaydi. Bas, shunday ekan, bolalarimiz uchun 90 yildirki ezgulik minbari bo'lib xizmat qilgan nashrlar doimiy o'quvchilarning hamrohiga aylanishi kerak. Bugungi kun o'qituvchisi o'z minbari bo'lgan "Ma'rifat" gazetasini qo'lga olmay qo'yg'an bo'lsa, adabiyot o'qituvchisi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasini ochib ko'rmasa, o'quvchiga buguni kunimiz, adabiyotimiz haqida qanday saboq beradi? Xalq ta'limi vazirligi tomonidan har bir maktab kutubxonasi o'ziga tegishli bo'lgan nashrlardan hech bo'lmasa ikki donadan obuna bo'lishi haqida xat chiqargandi. Afsuski, u maktablar ijrochisi qo'lga yetmay kinningdir tortmasida qolib ketdi, shekilli. To'g'ri, bir paytlar turli tashkilotlar o'zlarining o'quvchiga aloqasi bo'lmagan gazeta va jumallarga maktablarni majburlab obuna qildirishgani rost. Bugun u o'yinlarga chek qo'yildi. Majburiy emas, degan ibora o'shanday nashrlarga nisbatan qo'llanilgan. Bir hisobdan bu to'g'ri. Ammo bu degani o'quvchi va ustozlar matbuotdan butunlay yuz o'g'irsin, degani emas. Bugungi tezkor davr-u zamonda ijodkor o'quvchi va murabbiylarning yo'lga hech narsa g'ov bo'lolmaydi. Izlanuvchan ustoz va murabbiylar o'z shogirdlarini hamisha bilim ummoniga sho'ng'ib yashashga undaydi.

Aziz o'quvchi! Sizning ham o'z minbaringizga chiqib aytadigan fikr-mulohazalaringiz yoki she'r va hikoyalaringiz bor bo'lsa, unda kitob va gazetalar dunyosiga doimiy hamroh bo'lganingiz ma'qul!

AXTAMQULI

Tarix fanidan test savollari

№	Savol	A	B	C	D
1.	Shaharlarning shibot bilan rivojlanishi Germaniyada qachon avj olgan?	XIX asrning 70-yillarida	XVIII asrning 80-yillarida	XVIII asrning 60-yillarida	XIX asrning 50-yillarida
2.	XIX asr o'rtalarida quyidagi qaysi mamlakatda tabaqaviy imtiyozlar tugatilib, birinchi o'ringa insonning qaysi tabaqaga mansubligi emas, shaxsning erkinligi, qobiliyati, mustaqilligi, individualligi qo'yildi?	Buyuk Britaniyada	Fransiyada	Germaniyada	Rossiyada
3.	Quyidagi qaysi yillarda Buyuk Britaniya hukumati Irlandiyaga gomrul berish masalasi ko'targan?	1886-yil, 1912-yil	1884-yil, 1914-yil	1887-yil, 1912-yil	1889-yil, 1911-yil
4.	Rimda Respublika davrida liktorlar nima uchun yekalari orasida boltacha sanchilgan qayshiq arqonchalardan bog'lama taqib yurishgan?	Konsul jinoiyatchilarni jazolash imkoniyatiga egaligi alomati sifatida.	Konsul — urush davrida Rim hukmdori etib tayinlangani uchun.	Rimning tub aholisi plebeylar isyon ko'targanda uni bostirish maqsadida.	Rimning barcha fuqarolari mavqaidan qat'i nazar qonun oldida tengligini nazorat qilish maqsadida.
5.	Rossiyaning Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo'lishi (a) va Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritishi (b) qaysi hukmdorlar davriga to'g'ri keladi? 1) Ivan IV; 2) Pyotr I; 3) Yekaterina II; 4) Aleksandr II.	a-2, b-3	a-1, b-3	a-2, b-4	a-1, b-4
6.	Rossiya qaysi hukmdor davrida Turkiya bilan Kuchukqaynari shartnomasini imzolagan?	Yekaterina II	Aleksandr I	Nikolay I	Nikolay II
7.	Quyidagi voqealardan Arab xalifaligida Muoviya I hukmronlik qilgan yillar oralig'ida bo'lib o'tganlarini toping. 1) Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro hududiga bostirib kirdi; 2) arablarning Maymurg'ga ilk hujumlari amalga oshirildi; 3) Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arablar Movarounnahrni zabt etishga kiritildi; 4) arablarning Chag'oniyonga ilk hujumlari amalga oshirildi.	1, 4	2, 3	1, 3	2, 4
8.	Quyidagi qaysi Xuroson noibining boshqaruvi xalifa Marvon II hukmronligi davriga to'g'ri keladi?	Nasr ibn Sayyor	Abu Muslim	Qutayba ibn Muslim	Ashros
9.	Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda berilgan javobni toping. 1) Kubada qulchilik bekor qilindi; 2) AQSHda qulchilik bekor qilindi; 3) Braziliyada qullarni ozod qilish haqidagi qonun qabul qilindi.	2, 1, 3	2, 3, 1	1, 2, 3	1, 3, 2
10.	XI — XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda hukm surgan sulolalar saltanatida "maslahatchi", "amaldor", "vazir" ma'nolarini anglatgan atamani aniqlang.	inoq	tunqator	otaliq	devonbegi
11.	Hindiston milliy kongressining nechanchi yilda chaqirilgan qurultoyida Radikal oqim HMK tarkibidan chiqarilgan?	1908-yilda	1909-yilda	1907-yilda	1906-yilda
12.	Rossiyaning qaysi imperatori O'rtasiyodan M.Chernyayevni Sankt-Peterburgga chaqirib olib, uning o'miga Turkiston viloyatining gubernatori etib F.Romanovskiyni tayinlagan?	Aleksandr II	Aleksandr III	Nikolay I	Nikolay II
13.	O'rtasiyodda Angliyada hukmronlik qilgan qrollarni boshqaruv davri boshlanishiga qarab to'g'ri xronologik tartibda berilgan javobni toping. 1) Ioann; 2) Genrix II; 3) Vilgelm I; 4) Garold.	4, 3, 2, 1	4, 1, 2, 3	4, 3, 1, 2	4, 1, 3, 2
14.	O'rtasiyodda Amerika qit'asida vujudga kelgan davlatlar poytaxtlari bilan mos ravishda berilgan javobni belgilang. 1) Asteklar davlati; 2) Inkalar davlati; 3) Mayyalar davlati. a) Niara; b) Chichen-Itsa; c) Guo; d) Kusko; e) Tenochtitlan.	1-c, 2-d, 3-b	1-c, 2-b, 3-a	1-e, 2-d, 3-c	1-c, 2-a, 3-d
15.	Quyidagilardan mil.avv. VI asrda bo'lib o'tgan qo'zg'olonni toping.	Frada boshchiligidagi qo'zg'olon	Lyu Ban boshchiligidagi qo'zg'olon	Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon	"Sariq ro'mollilar" qo'zg'oloni
16.	Quyida berilgan hukmdorlar hukmronligi boshlangan yillariga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping. 1) Chexiya hukmdori knyaz Vatslav; 2) Safforiylar hukmdori Amr ibn Lays; 3) Bolgariya hukmdori Simeon; 4) G'aznaviy hukmdori Sobuqtegin	2, 3, 1, 4	3, 2, 1, 4	2, 1, 3, 4	4, 1, 2, 3
17.	Vena kongressiga ko'ra, 200 dan ortiq mayda davlatlarga bo'linib ketgan Germaniya o'rtida 39 davlatdan iborat Germaniya ittifoqi tuzilib bu ittifoqda ... yetakchilik roli e'tirof etilgan.	Avstriyaning	Prussiyaning	Vestfaliyaning	Reynning
18.	XI asrdan Yevropaning quyidagi qaysi davlatlarida saroylar va ibodatxonalar pishiq g'ishtdan qurila boshlangan?	Angliya va Polsha	Angliya va Fransiya	Polsha va Italiya	Fransiya va Italiya
19.	Quyidagilardan Xitoy milliy-ozodlik harakati rahbari Sun Yat Sen faoliyati bilan bog'liq bo'lganlarini aniqlang. 1) "Xetuan" yashirin tashkiloti; 2) Gomindan partiyasi; 3) Manchjou-Go davlatining tuzilishi; 4) "Xitoy uyushmalari ittifoqi" siyosiy tashkiloti.	2, 4	1, 3	1, 4	2, 3
20.	Yuz yillik urush davrida Azenkur jangidan so'ng Fransiyaning qaysi viloyati gersogi inglizlar tomoniga o'tib ketgan?	Burgundiya	Bretan	Akvitaniya	Flandriya

№	Savol	A	B	C	D
21.	Quyidagilardan Xo'jand shahri bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni belgilang. 1) mo'g'ullar bosqini vaqtida shahar 7 oy gamal qilingan; 2) 1137-yilda Qoraxitoylar Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylar eloxqoni Mahmudga qarshatqich zarba berdi; 3) Temur Malik Xo'jand hokimi bo'lgan; 4) Chig'atoy Xo'jand shahrini o'ziga qarorgoh qilib olgan; 5) Xo'jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan.	1, 3, 5	2, 3, 5	1, 3, 4	2, 3, 4
22.	Quyidagi shaxslardan qaysi biri o'rtasiyodda Angliyada hukmronlik qilgan?	Garold	Aleksey I	Karl V	Fridrix II
23.	Doro I davrida Fors podshohligi qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi?	Persopol	Suza	Ekbatana	Nineviya
24.	XX asr boshida bo'lib o'tgan Eron inqilobi davrida mamlakatni boshqargan hukmdorlarni belgilang. 1) Abdulhamid II; 2) Omonollaxon; 3) Muzaffariddin; 4) Muhammad Alishoh; 5) Sheralixon; 6) Ahmadshoh.	3, 4, 6	1, 2, 5	1, 3, 5	2, 4, 6
25.	XX asr boshida Kuba amalda qaysi davlatga qarab bo'lib qolgan?	AQSH	Germaniya	Ispaniya	Buyuk Britaniya
26.	Quyidagilardan XIX asr oxirida Kubaga da'vo qila boshlagan davlatni belgilang.	AQSH	Portugaliya	Buyuk Britaniya	Fransiya
27.	Buxoro amirligida yosh buxoroliklar siyosiy harakat sifatida harakat qila boshlagan yilda amirlik taxtiga o'tirgan hukmdorni belgilang.	Amir Olimxon	Amir Abdulahad	Amir Muzaffar	Amir Nasrullo
28.	Quyida berilgan yillarda bo'lib o'tgan voqealar mos ravishda berilgan javobni toping. 1) 1336-yil; 2) 1366-1370-yillar; 3) 1395-yil; 4) 1398-1399-yillar. a) Amir Temur Hindistonga yurish qildi va Dehlini egalladi; b) Kesh viloyatidagi Xoja Ilg'or qishlog'ida Amir Temur tavallud topdi; c) Amir Temur va Husayn o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar bo'lib o'tgan; d) Amir Temur Tarak daryosi bo'yidagi jangda To'xtamishxon ustidan g'alaba qozondi.	1-b, 2-c, 3-d, 4-a	1-b, 2-a, 3-d, 4-c	1-b, 2-c, 3-a, 4-d	1-b, 2-d, 3-c, 4-a
29.	Quyidagilardan qaysi biri Turkiston o'lkasida 1919-yilda tashkil etilgan?	Musbyuro	Turkiston Kommunistik partiyasi	TASSR	O'zbekiston SSR
30.	Doro I tomonidan bosib olingan Frakiya qayerda joylashgan edi?	Bolqon yarimoroli sharqida	Pireney yarimoroli g'arbida	Qora dengiz sharqida	O'rtasiyod dengizining g'arbida
31.	Kushonlar davriga oid topilmalar topilgan joylari bilan mos ravishda berilgan javobni aniqlang. 1) fil suyadigan yasalgan shaxmat donalari; 2) do'mbirachi hamda ud cholg'u asbobi chalayotgan musiqachilar tasviri; 3) kushon hukmdorlari saroyi; a) Xolchayon; b) Ayritmon; c) Dalvarzintepa; d) Surxko'tal	1-c, 2-b, 3-a	1-a, 2-b, 3-d	1-c, 2-d, 3-a	1-a, 2-c, 3-b
32.	Qadimgi Rim armiyasining tuzilishi to'g'ri ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.	senturiy-kogorta-legion	kogorta-senturiy-liktor	senturiy-legion-falanga	legion-kogorta-falanga
33.	Quyida berilganlardan Qadimgi dunyo tarixida mil. avv. I asrda ro'y bergan voqealarni aniqlang. 1) Rimda muntazam yollanma qo'shinlarga tayayuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandi; 2) Kushon davlatiga asos solindi; 3) Xitoyda qo'g'oz ixtiro qilindi; 4) Rim eng yirik va aholisi ko'p shaharga aylandi; 5) Qadimgi yunon tarixchisi va geografi Strabon "Geografiya" nomli asarini yozdi.	1, 3, 5	2, 3, 4	1, 3, 4	2, 4, 5
34.	Afg'oniston hukmdori Temurshohning hukmronlik yillarini aniqlang.	1773-1793-yillar	1747-1773-yillar	1768-1793-yillar	1789-1803-yillar
35.	Xitoy hukumati nechanchi yilda Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi?	1829-yilda	1825-yilda	1832-yilda	1755-yilda
36.	Bir yilda sodir bo'lgan voqealar berilgan javobni aniqlang. 1) Inglizlarning Markaziy Osiyoga A. Byorns boshchiligidagi yuborgan elchilari Buxoroga kirib keldi; 2) Pekinda Xitoy-Qo'qon shartnomasi imzolandi; 3) Inqilob natijasida Lyul monarxiyasi quladi, Fransiya Respublika deb e'lon qilindi; 4) Buyuk Britaniyada parlament islohoti o'tkazilib, unga ko'ra yirik sanoat markazlariga 144 ta o'rin ajratib berildi; 5) Urugvay to'la mustaqillikka erishdi; 6) Braziliya Portugaliyadan mustaqil deb e'lon qilindi.	1, 3, 5	1, 2, 4	2, 4, 6	3, 5, 6
37.	1279-yilda bo'lib o'tgan voqeani toping.	Xitoyda Yuan sulolasi hukmronligi boshlandi	Hindistonda Sayyidlar sulolasining hukmronligi boshlandi	Yaponiyada Mikado boshqaruvi joriy etildi	Arab xalifaligi hukmronligi tugadi
38.	XIII asrda Mo'g'ullar davlatini boshqargan ulug' xoqonlarni belgilang. 1) Chingizxon; 2) Chig'atoy; 3) O'qtoq; 4) Jo'ji; 5) Munke; 6) Xubilay	1, 3, 5	1, 3, 4	2, 3, 6	2, 4, 5
39.	1405-yil 18-martda o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilgan Xalil Sulton Mirzo kimning farzandi edi?	Mironshohning	Shohruxning	Umarshayxning	Pirmuhammadning
40.	Qaysi G'aznaviy hukmdor davrida Qoraxoniylar Xurosonni o'z davlatiga qo'shib olish uchun ikki marta hujum qilgan?	Mahmud G'aznaviy	Ma'sud G'aznaviy	Sobuqtegin	Alptegin

(Davomi kelgusi sonda.)

Ustozlar, biz "Telegram" tarmog'idagi "like" uchun emas, o'quvchilar, kasbimizni sevganimiz uchun ishlashimiz kerak emasmi?

O'qituvchilar bilan ovora yig'ish



Har kuni ish kunim shunday boshlanadigan bo'lib qoldi, oldin "Telegram"ni bir ziyorat qilaman. Ta'limdagi hamma gap shu yerda. Yangiliklaridan xabardor qilib turadigan kanallar bor. Televizor ko'rishga ham ehtiyoj yo'q.

Xohlaysizmi, yo'qmi, bizing karantin vaqtidagi xatti-harakatlarimizni ijtimoiy tarmoq boshqaradigan bo'lib qoldi. So'nggi paytlarda o'qituvchilar orasida videorolik oki shunga o'xshash narsalarini "Telegram"dagi kanallarga joylab "Iltimos, menga "like" bosib yuboring" deb murojaat qilish juda avjiga chiqdi.

Surishtiruvlarimga ko'ra bunday ma'lumotlarni "Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi ayrim kanallarga joylash o'rtacha 10 000-20 000 so'mg'a tushadi. Keyin ma'lumot egasi kamida 100 ta "like" to'plashi lozim ekan. Barcha shartlar bajarib bo'lingach, kanal adminidan jimjimador qilib ishlangan "Sertifikat" taqdim etilar ekan. Endi mavzuning asosiy, mantiqiy qismiga o'taman.

Birinchidan, o'zi bundan kimga nima naf? Layk olgan kishining ish faoliyati juda mukammal bo'lmasa-da,


layk bosishga arzigulik ekani-ga aminmisiz? Ha aytgancha, "like" bosayotib u videoni hech kim ochib ham ko'rmasa kerak. Chunki o'zim ham o'quvchilarni uy vazifasi tayyorlab yuborgan rasmlarni zo'rg'a ochib olmayman (internet muammo-ku).

Undan keyin joylangan videorolikni o'zingiz, yaqin tanishlaringiz, nari borsa hamkasblaringizdan boshqa hech kim ko'rmaydi. Chunki "Telegram"dagi kanallarning ko'pi soxta kanallar hisoblanadi. Shunday kanallarda ko'rishlar soni ham kam bo'ladi (bu bo'yicha biroz mutaxassis bo'lib qolganman). Menimcha, "layk"-bozlik ham qarsakbozlikning bir turi bo'lsa kerak. Chunki bunda ham o'qiysanmi, o'qimaysanmi, farqi yo'q, bir qarsak cholib qo'yganday, videorolikka "like" bosib qo'yasan, shu bilan hamkasbingning iltimosi bajariladi.

Ikkinchidan, xo'p, "like" to'plab sertifikat oldingiz ham deydik. Uni nima qilasz, atrof-dagilarga "like" yig'ib olganman deb maqtanasizmi? Yoki 823-sonli qaror bo'yicha ustama papkangizga solib qo'yasizmi? Hech qayerga o'tmasa ham.

Bunday sertifikatni ikki daqiqada informatika fanidan "5" bahoga o'qiydigan o'quvchilar ham tayyorlay oladi. O'zi men butun Respublika bo'ylab "Faxriy orloq" tizimidan voz kechish kerakligi haqida yozmoqchi bo'lib turgandim, bunisi oshib tushdi. Fikrimcha, inson bir ishga qo'l urishdan avval uning zamirida nima yotganligini bilishi lozim. Bunday "like"bozlikdan menimcha hech kimga foyda yo'q. Ta'lim tizimi nima yutadi bundan? Ta'lim sifati yaxshilanib qoladimi? Yoki siz erishgan ilmiy-pedagogik natija ommalashib qoladimi? Nima o'zgaradi bundan?

Ustozlar, biz "Telegram" tarmog'idagi "like" uchun emas, o'quvchilar, kasbimizni sevganimiz uchun ishlashimiz kerak emasmi? Borgan sari virtuallashib, soxta amallarga chalinayotgan bir paytimizda vaqt uchqur otday yelib o'tib



ketmoqda-ku?! Undan ko'ra metodik qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, yangi o'quv yilida foydalanish uchun taqdimotlar tayyorlash ustida ishlasangiz, foydaliroq bo'lardi.

"Like"bozlik birovlarining vaqtini o'marish, shuhratparastlik va madaniyatsizlikdir. Kingadir "like" bosing" deb murojaat qilish esa tilanchilikka o'xshaydi. Bu ketishda "like" to'playman deb o'quvchilarni ham shunga jalb qilmasak bo'lgani.

Ochig'i, bunday soxtalik, zo'rma-zo'rakilik va tilanchilik ortidan nimaga erishamiz. Men ham o'qituvchiman. Sizni tushunaman. Lekin boshqalar sizning ustingizdan kulsalar, men chiday olmayman. Siz zi-

yolisiz. Siz hammaga o'rnak bo'luvchi insonsiz. Undan ko'ra kitob o'qing, o'quvchilaringiz bilan muhkama qiling, maqolalar yozing. Shu orqali ziyo tarqating.

Fikrlarim hech kimga og'ir botmasin. Do'st achitib gapiradi. Eslatib o'tay: men ijtimoiy tarmoqlarga joylanayotgan videoroliklarga umuman qarshi emasman. Ommalash-tirish juda yaxshi narsa. Faqat "like"bozlikka qarshiman.

Keling, aziz ustozlar, shu "like" degan atamani ish faoliyatimizdan chiqarib yuboraylik.

Ulug'bek PO'LATOV,
Qo'shitepa tumanidagi
21-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha o'rinbosari

Adib yaratgan nurxona

O'tgan yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida tashkil etilgan "Ijodkor o'qituvchilar" respublika seminarida sho'balarga bo'lingan o'qituvchilar shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olimlar tomonidan o'tilgan mahorat darslarini tinglashdi, o'zlarini qiziqirtirgan savollarga javob olishdi.

Biz to'qqiz nafar o'qituvchi taniqli jurnalist, "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyevning hikoya, qissa, roman haqidagi qarashlari va ocherk, esse, maqola kabi janrlarning bugungi kunda dolzarbligi haqidagi fikrlarini tinglash baxtiga muyassar bo'ldik. Ustoz har birimizning maktabda ijodkor o'quvchilar bilan olib borayotgan ishlarimiz bilan qiziqdi. Yosh ijodkorlarni kashf etishda kitobning o'rni haqida so'zlab, yoshlik xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

— Bolaligimizda o'qituvchilarimiz bizga yaxshi inson bo'lishni istasangiz ko'p kitob o'qinglar, deb uqtirardi. Ustozlarimiz ko'p so'ziga urg'u berishini keyin tushunib yetdim. Bizning bolalik paytimizda bugungidek kitoblar ko'p bo'lmagan. Tuman markazidagi kitob do'koniga haftada bir marta yangi kitoblar kelar edi. Har hafta uch-to'rtta yangi kitob olardim. Kitoblarni o'qib bo'lgach, yangi kitoblarni kutardim. Bir marta

nimagadir kechikib kelibman, yangi kitoblar allaqachon sotilib bo'lgan ekan. Alamimdan yig'lab yuboray dedim. Jahl bilan do'kondan chiqib ketayotсам, do'kon peshtaxtasining bir burchagida kichkina kitobchaga ko'zim tushdi.

— Ana, kitob bor ekan-ku, — dedim sevinib ketib.

— Shu kitobchani olasanmi? — dedi sotuvchi.

— Olaman. Qancha turadi, — dedim.

— Sakkiz tiyin, — dedi sotuvchi.

O'n tiyin uzatdim-u, kitobni olib do'kondan chiqdim. Uyg'a kelib qarasam, bu kitobcha qirg'iz cho'ponlari uchun qo'yning junini olish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan qo'llanma ekan. Shunday qilib qo'y junini olish texnikasi bilan ham tanishib oldim.

Yillar o'tib mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatov bilan uchrashganimda, ulug' adibning adabiyot olamiga kirib kelishida "Qirg'ichmi" deb nomlangan devoriy gazetaning xizmati katta ekan-

ligini to'qinlanib so'zlagan edi. Ham-mamiz yaxshi bilamiz, yozuvchi Chingiz Aytmatov veterinariya texnikumini tugatgan. Ular har yili ta'til vaqtida qo'ylarining junini olishda kolxoz cho'ponlariga yordam berish uchun borishadi. Yozuvchiga juda sekin ishlaydigan cho'ponlarni tanqid qilib, ilg'or cho'ponlarni maqtab devoriy gazetaga xabarlar yozish topshirig'i beriladi. Yosh Chingiz buni juda yaxshi uddalaydi. Keyinchalik boshqa mavzularda xabarlar yozish uning kundalik mashg'ulotiga aylanadi va o'zi ham sezmaganda ijod dunyosiga kirib keladi. Ijodkor o'quvchilarni kashf etishda, adabiyot fani o'qituvchilarining ishonchi ham katta ahamiyatga ega deb o'ylayman. O'quvchilik vaqtimda ona tili va adabiyot fani o'qituvchimizning "sendan yaxshi jurnalist chiqadi" degan ishonchi bugun mening hayotimga aylandi. Qaysi bir yili ijodkor yoshlarning Zomin seminarida publitsistik uslubda bitilgan mashqlar tahlili menga topshirildi. Menga ma'qul bo'lgan mashqlar muallifi bo'lgan yoshlar bilan yaqindan tanishdim. Seminar davomida o'sha qizlarga bir necha bor mahorat darsi o'tdim. Shu yili Milliy universitetning jurnalistika fakulteti talabalariga dars o'tishga taklif qilishdi. Ma'ruza tugagach, uch nafar qiz kelib o'zlarini

tanishtirishdi. Bu qizlar Zomin seminarida qatnashgan, juda qisqa vaqt mendan saboq olgan shogirdlarim ekan.

O'z vaqtida berilgan saboq, kerak vaqtida ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar, albatta, o'z natijasini beradi, deb ishonaman. Yaqinda Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Qizilyozi qishlog'idan uch gektar yer olib, o'z hisobimdan kutubxona qurdim. To'plagan kitoblarimni shu kutubxonaga sovg'a qildim. Kutubxona rasman ochilmasa-da, mahalliy aholi foydalanib kelmoqda. Yana bir ezgu tilakni dilimga tugib qo'ydim. Yozgi ta'til vaqti ishdan bo'sh paytlarim o'n, o'n besh nafar o'g'il-qizlarni qiziqishiga qarab nazm va nasr yo'nalishida darslar tashkil etish niyatim bor, deb so'zini tugatdi ustoz. Biz ustoz yaratayotgan nurxonaga albatta borishimizni aytib xayrlashdik.

Bugun yurtimizning viloyat va tumanlarida tadbirkor insonlar tomonidan ochilayotgan kutubxonalar haqida xabaringiz bor. Ammo o'z hisobidan yosh avlodni kitob olamiga qaytarish uchun kutubxona tashkil qilib, o'quvchilarga ijod sir-asrorlaridan saboq berib, adabiyot olamiga yetaklay olish bu haqiqiy VATANPARVARLIK, olijanoblik va chinakam INSONPARVARLIK emasmi?

Dilfuza G'AZNAYEVA,
Sirdaryo tumanidagi
5-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi



Qiziqarli faktlar

Kitoblar haqida ko'p va xo'b yozdik, yozmoqdamiz. Lekin qancha ko'p yozsak, targ'ibot qilsak, shuncha oz ekanligini yaxshi bilamiz. Hozir sizga aynan kitob o'qishning foydali tomonlari haqida gapirmoqchi emasman. Kitoblar haqida kutilmagan, ajabto'vor, hayratomuz, qisqasi, noodatiy holatlar haqida aytib bermoqchiman.

Qadimda kitoblar juda qimmat bo'lgan. XVIII asrgacha ba'zi kutubxonalarda kitoblar o'g'irlanmasligi uchun zanjirga bog'lab qo'yilgan. Kitob kam va qimmat bo'lsa-da, uni o'qishga qiziqish kuchli bo'lgan. Bugungi kunda kitoblar ko'p va narx-lari ham baholi qudrat, cho'ntakbop, lekin xarid qilish jarayoni qanday kechayapti? Kitoblarni kim ko'p sotib oladi, erkaklarmi, ayollari? Albatta ayollar! Ular erkaklarga qaraganda ko'proq (68%) kitob sotib oladilar. Bu faktni o'qib rostligiga shubha qilmadim. Ishonmasangiz, "Sharq ziyokori" do'koniga boring, asosiy xaridorlar ko'pincha ayollar bo'ladi (Xuddi boshqa, masalan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, parfumeriya do'konlari kabi. Albatta bu mening shaxsiy kuzatuvim, hech qanday statistika asoslanmagan). Shu o'rinda bir fikr tug'ilib qoldi, balki do'kon xodimlari bilan kelishib bir hafta davomida kuzatuv o'tkazarmiz?

Dunyo bo'yicha kitoblarning asosiy qismini 45 yoshdan oshganlar sotib olishar ekan. Afsuski, zamonaviy yoshlarimiz bu borada ancha orqadalar. Biz hamma narsani yaxshilikka yo'yib o'rgangamiz, bu holatni ham ular elektron kitob o'qiydilar, shuning uchun kamdan-kam hollardagina kitob sotib oladilar, deb izohlamog'chimiz. Aslini olganda, kitobni qo'lingizda ushlab, salmog'ini, taftini his qilib o'qiganga nima yetsin, aziz yoshlar.

Kitob bilan pichoqning o'g'irisi bo'lmaydi, deyishadi. Ya'ni, kitob o'g'irlaganlar o'g'iri hisoblanmas ekan. Shu mavzuda bahs-munozaralar ham bo'lgandi. Xullas, o'g'irlikmi, o'g'irlik, katta-kichigi, og'ir-yengili bo'lmaydi, uning yagona nomi o'g'irlik, tamom. Fanda kitob o'g'irlik bibliokleptoman deyiladi. Dunyodagi eng mashhur kitob o'g'irisining ismi — Stiven Blumberg. U 270 kutubxonadan 23000 nodir kitobni o'g'irlagan. Uning kutubxonasining narxi 20 million dollardan oshadi.

Mashhurlikda Agata Kristining oldiga tushadigan detektiv yozuvchi hali-beri topilmadi. Uning asarlari 50 dan ortiq tillarda hamon chop etilmoqda. Nashr etilgan kitoblari nusxasi 2 milliarddan oshadi.

Dunyoda eng katta lug'at kitob "Nemis lug'ati" ("Deutsches Wortetbuch") bo'lib, u 1854-yili Yakob va Vilgelm Grimm tomonidan tuzib boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo'shib, 1971-yili yakunlangan. 33 jildlik ushbu lug'at 34519 betdan iborat.

Eng og'ir kitob haqida eshitganmisiz? Bu kitob Britaniya muzeyida saqlanuvchi XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo'yi 1,9 metr, og'irligi 320 kilogramm.

Azaldan xalq qahramonlari, bahodirlar, buyuk shaxslar, shohlar haqida kitoblar yozish an'anasi mavjud. Ularni o'qib o'tmishdagi ajdodlarimiz haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Dunyo bo'yicha hisoblab ko'rilganda eng ko'p kitob Napoleon haqida yozilgan aniqlandi. U haqda 10000 dan ortiq turli janrlarda kitob yozilgan. Shu o'rinda Napoleonning o'zining kitob o'qishi haqida ham to'xtab o'tish joiz: u daqiqasiga 2000 ta so'z o'qiy olgan. Balzak esa yarim soatda 200 bet kitob o'qigan.

Mutolaa

Siz kitobni qanday o'qiysiz?

O'zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman", degan edi o'z davrining mashhur yozuvchilaridan biri. Texnolog tsivilizatsiya asrida kitobxonlik juda noyob hodisaga aylanib qoldi. Qaysidir sohada katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan, mutolaani o'z hayotining mazmuni deb bilgan zamondoshlarimizning bu boradagi sa'y-harakatlari ibrat olishga arziydi. El nazariga tushgan insonlar kitobni qanday o'qishadi?



Xurshid DO'ST-MUHAMMAD, yozuvchi:

— Qanday kitob, nima maqsadda o'qilyapti, qaysi yo'nalish va mavzuda, bu mutolaa tarzini belgilaydi. Tarixiy, ilmiy yo'nalishdagi kitoblarga o'chroqman. Abdulla Qodiriyning "Diyori bahr" asarida menga notanish 200 ta arxaik

so'z uchradi. Afsuski, o'sha tarixiy atamalar mazmunini ifodalaydigan manba topa olmaganman. Shaxsiy kitobim bo'lsa, ma'lumotlarni esda saqlab qolish uchun tagiga qalam bilan chizish odatim bor. Egasiga qaytarishim zarur bo'lgan kitoblardan qisqa konspekt olaman. Xotiram chatoq, ko'p vaqtim takror mutolaa ketsa ham, bundan zavq olaman. Mutaxassislar kitob o'qish jarayonida yangi sinapslar, ya'ni miya neyronlarining o'zaro hamda boshqa hujayralar bilan aloqasi yuzaga kelishini ta'kidlashadi. Bu esa miyaning ish qobiliyati, hajmini kuchaytirar ekan. Eng muhimi — kitob uni o'qiyotgan shaxsga yoqishi zarur.

Ayrim asarlarni diqqat bilan, oshiqmay o'qish lozim. Mashhur fransuz adibi Marsel Prustning 7 ta romandan iborat "Boy berilgan fursatlarni izlab" turkum asarlarini rus tilida takror-takror o'qiyman. Bunday asarlarni konspekt qilaman desangiz, uni to'lig'icha ko'chirib olishga to'g'ri keladi! Bunga fursat qani?! Esda saqlash uchun asarning qisqa mazmunini shaxsiy kompyuterim bazasiga kiritib qo'yaman. Ilgari konspekt daftar tutardim, hozir matnni qo'lda yozishdan ko'ra klaviaturada terish afzal, vaqtdan yutaman. Iskandar Qalandarovning 60-yillar o'rtalarida shov-shuvga sabab bo'lgan "Shoxidamas, bargida" qissasining har bir sahifasi, har bir jumlasini, har bir so'zini bittalab o'qigan bo'lsam, bu usul yosh ulg'aygan sari o'zini unchalik oqlamasligiga tan berdim. Ko'ngil buyurgan har bir asarni shu tarzda o'qib chiqishga vaqt yetmaydi, umrimiz kamlik qiladi. Sahifani to'liq o'qish emas, balki ikki-uch soniyada ko'z yugurtirib ham asar mazmunidan boxabar bo'lish mumkin.

1965-yili Moskvada nashr etilgan "Эстетикаповедения" ("Xulq-atvor nafosati") degan kitobni talabalik yillarimda qiziqib o'qib chiqqach, kamchilik-nuqsanlarim son-sanoqsiz ekanini bildim. Hali-hanuz tanish-bilishlarning yashash tarzi, ro'zg'or tutumi, yurish-turishi, kiyinishi, muomalasi, hatto dasturxon tevaragida o'tirishini ham o'sha kitob mezonlaridan kelib chiqib baholayman. Aynan shunday kitoblar har bir o'zbek oilasida mutolaa qilinishi va bunga hayotda amal qilinishini istardim.

Guli SHAYKOVA, tibbiyot fanlari doktori, professor:



Tibbiyot sohasida ilm-fan bilan shug'ullanaman degan tadqiqotchi kitob o'qimasa, uning mag'zini chaqmasa, mohiyatini anglab yetmasa, ko'zlagan maqsadiga erisholmaydi. Ovqatlanish gigiyenasi tibbiyotda murakkab tarmoq. Uning yengidan kirib, yoqasidan chiqish uchun qanchadan-qancha ilmiy adabiyotlarni titkilashimga to'g'ri kelgan. Tadqiqotchi ilmiy adabiyotlardan foydalanganda asosan uchta jihatga e'tibor qaratishi kerak: mutolaa haqqoniyligi, o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liqligi va uni obzor shaklida berish. Rus akademigi A.A.Pokrovskiyning "Ovqatlanish gigiyenasi" ilmiy to'plamida kasallik turiga qarab, 15 ta parhez stoli turi taomnomasini ishlab chiqqan. K.S.Petrovskiyning ilmiy asarlarini aynan ana shu talablar asosida sinchiklab o'rgandim. Birinchi marta o'qiganimda anglab yetmaganlarim takror o'qiganda oydinlashgan. Izlanuvchi kitobni shunchaki o'qimaydi, balki tahlil qilib, zarur ma'lumotlarni ilmiy-tadqiqot mazmuniga singdirish uchun o'qiydi. Kitoblar turlicha, adabiyotlar turfa, manbalar ko'p. Undan keraklisini ajratib olishning o'ziga xos usullari mavjud. Kuzatib ko'rganman,

maqsadga muvofiq.

Qachonlardir nashr qilingan ilmiy adabiyotlarda to'g'ri ovqatlanishning il-dizlari mujassam. Ammo faqat kitob bilan kifoyalani tadqiqotchining imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Internet saytlari yoki elektron kitoblarda u bilan bog'liq so'nggi yangiliklar bilan tanishib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Vaqti-vaqti bilan o'z yo'nalishim bo'yicha global tarmoqqa kirib, dunyo miqyosidagi yangiliklar bilan tanishib boraman. 650 dan ortiq o'quv adabiyoti, ilmiy-ommabop risola, maqola hamda tavsiyaviy xarakterdagi qo'llanma doimiy kitob mutolaasining mahsulidir.

Darvoqe...

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida abonentlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun elektron manbalardan foydalanish imkoniyati kengaytirilmoqda. Kutubxonaning "Tafakkur" va "Jahon" zallarida mobil kutubxona tizimini joriy etish rejalashtirildi. Bu mobil aloqa vositasidan keng foydalanayotgan barcha abonentlarning internetga ulangan holda maxsus kodni skaner qilish orqali kitob mutolaa qilishiga imkoniyat yaratadi. Kitob muqovasi skanerida ko'rsatilgan kod terilishi bilan telefonda o'sha manbaning elektron shakli namoyon bo'ladi.

Mavzuga doir ma'lumot:

O'zbekistonda 20 ta turli vazirlik va idoralarga qarashli 12 mingdan ziyod kutubxona mavjud. Ularda jami 23 milliondan ortiq kitob saqlanmoqda. Jumladan, Toshkent shahridagi Respublika bolalar kutubxonasi 1965-yili Alisher Navoiy nomidagi davlat kutubxonasining «O'smirlarga xizmat ko'rsatish bo'limi fondi» negizida Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan viloyatlardagi bolalar kutubxonalari uchun ilmiy-uslubiy markaz sifatida tashkil etilgan. Hozir bu muassasa 220 mingdan ortiq kitob zaxirasiga ega.

Jaloliddin AZIMOV, O'zFA akademigi:



— Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dan bizga qadar yetib kelgan ajoyib hikmat bor: "Beshikdan to qabrgacha ilm o'rgan". Buning zamirida o'qib-o'rganish, bilim egallash, kitobni qadrlashga ishora bor. Aql-u hushini tanib, maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan har bir kishi kitob bilan do'stlashadi, undan javohir teradi. 18-20 yoshlargacha qo'limga tushgan kitobni o'qiyverganman. Chunki bizda kitobni tanlab, saralab o'qish imkoniyati bo'lmagan. Ammo shuning o'zi ham dunyoqarashimni kengaytirgan. Keyinchalik ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullana boshlagach, nazariy xarakterdagi adabiyotlarni ko'proq o'qishimga to'g'ri keldi. Ilmiy adabiyotlar bilan tanishish murakkab jarayon. Qo'limizdagi natijalarni u bilan bog'liq holda tahlil etish va qiyoslashimiz kerak. Dunyoga mashhur akademik K.I.Skryabinning "Hayvon va odamlarning trematodallari" ilmiy asarini yillar mobaynida sinchiklab o'qib chiqdim. Rus tilida bo'lgani uchun lug'atdan foydalandim. Kitob haqida to'liq tushuncha hosil bo'lgach, dissertatsiya mavzusiga tegishli qismlarini takror o'qib chiqqanman. O'qigan sari tafakkurimda o'zgarish sezardim.

Kitobni qanday o'qish kerak? Bu har kimning o'z xohish-irodasiga bog'liq. Globallashgan jamiyatda kitobxonlik kimlargadir qadrini yo'qotgan mashg'ulot turi bo'lsa-da, mutolaa qilayotgan qatlarga yoshlarning qo'shilayotgani quvonarlidir.

Hulkar KUZMETOVA yozib oldi.

Mujrim – Obidni bilasizmi?

XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Buxoroda yashab o'tgan yetuk shoir Mujrim – Obidning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?

Afsuski, bu nom xalqimizga u qadar yaxshi tanish emas. Buning sababi taniqli adabiyotshunos olim G'afur Eshmonovning shu yili "Akademnashr" nashriyotida chop etilgan "Adabiyot tarixida ijodiy mahorat, ustoz-shogirdchilik an'analari" nomli kitobida shunday izohlangan: "...Chunki uning asosiy merosi ilk manbalarda, ya'ni kirill yoki lotin yozuviga o'girilmagan".



Kitob Mujrim — Obidning hayoti va ijodi to'g'risidagi qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar bilan boshlangan. Shundan so'ng shoir taxalluslarining tanlanish tarixi, taxallusi o'rtasida nega tire qo'yilishi, uning zullisonayn(ikki tilli) shoir ekaniga batafsil izohlangan.

To'plamda, shuningdek, Mujrim – Obidning debocha bitishda Alisher Navoiydan o'mak olishi, so'z mulkining sultoni g'azallari-

ga hamohang satrlari, Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylariga va asarlarida Boborahim Mashrabga ergashuvi asosli misollar yordamida taqdim etilgan.

Muallif kuzatuvlardan kelib chiqqan holda adabiyot tarixiga oid ayrim xulosalarini bayon etar ekan, Buxoro adabiy muhitida Mujrim – Obid kabi mustaqil turkiy, ham forsiy devon tuzgan boshqa shoir hozircha ma'lum emasligiga va u she'rilarida badiiy san'atlardan unumli foydalaniganiga alohida urg'u beradi.

Mahmud RAJABOV



Qiziqarli faktlar

95% insonlar daqiqasiga 210 so'z yoki 2 daqiqada 1,5 sahifa kitob o'qiydilar.

Kitoblar sekin o'qilganda 100 foiz matn tushunilmaydi, faqat 60 foiz anglanadi, aksincha, tez o'qilganda matnning 80 foizi tushuniladi.

Aksariyat kitoblarning 18-betidayoq unga bo'lgan qiziqish yo'qoladi.

Italiyalik Rio Kozelli eng zerikarli kitoblar to'plashni yoqtirgan. Uning kolleksiyasida 10000 jild kitob bor. Bir omadsiz italyan shoiri kitobi Kozelli kolleksiyasidan o'rin olganini eshitgach o'zini o'ldirishga bir bahya qolgan. Yaxshiyamki, bizning yurtimizda bunday g'ayrioddiy kitoblar kolleksiyasi to'playdiganlar yo'q. Tasavvurimda, shunday odam bo'lsa uning kolleksiyasi Kozellinikidan ko'ra ancha boyroq bo'lardi-yov, siz nima deb o'ylaysiz?

Har bir ijodkor ijod qilar ekan, albatta, yozganlari uchun moddiy va ma'naviy rag'bat olishni xohlaydi. O'z vaqtida shohlar saroyida ijod qilib, ularni madh etadigan asarlar yozib, ko'klarga ko'tarib, nomlarini tarixga muhrlagan ijodkorlar bo'lgan. Ba'zida ulkan asarlar yaratib, o'zi mo'ljallagan onorami ololmay, biroz ranjiganlari haqida ham rivoyatnamo gaplarni eshitib qolamiz.

Dunyoda eng katta gonor Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan shoir Oppianga to'langan. Baliq tutish va ov haqidagi ikki dostoning har bir satri uchun 1 oltin tanga hadya qilingan. Uning ikki dostoni 20000 baytdan iborat.

Kitoblar haqida yana bir kutilmagan fakt: Bastiliya mahbuslari faqatgina odamlar bo'lmagan. Bir marta Didro va D'Alambning "Fransuz ensiklopediyasi"ni din va jamiyat axloqiga zarar keltirgani uchun "qamab qo'rganlar".

Eng qimmat badiiy asar Leonardo da Vinchi tomonidan ko'chirilgan "Leychester kodeksi" kitobidir. Uni "Microsoft" asoschisi Bill Geys 1994-yili Nyu-Yorkdagi "Sotbis" auksionidan 30,8 million dollarga sotib olgan.

Dunyoning eng qadimgi kitobi esa Priss papirusidir. U eramizdan avvalgi 3350-yili yozilgan. Ushbu qo'lyozma uni 1839-yili Fivadan topgan Emil Priss sharafiga shunday nomlangan. Qo'lyozma muallifi — fir'avning vaziri Pta-Gotep. U yoshlarning tarbiyasizligi, dangasa va axloqsizligidan noligan.

Mashhur golland vrachi German Burxavening "Tibbiyot san'atining yagona va teran sirlari" nomli kitobi muallif o'limidan so'ng 1738-yili 10000 dollar oltinga auksionda sotilgan. Bejirim bezalgan va g'iloftangan kitob ochilganda uning barcha sahifalari bo'sh bo'lgan. Faqatgina ilk sahifasida shunday yozilgan edi: "Boshingni sovuqda qoldirsang ham oyog'ingni issiq tut. Shundagina sen eng zo'r vrachlarni ham kambag'al qilasan".

Xullas, shunaqa gaplar... Hozirgacha duch kelganim kitoblar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar shulardan iborat. Ushbular sizga ham qiziq tuyuldimi? Balki sizda yanayam qiziqarlilari bordir? Keling, o'rtoqlashamiz.

Asolat AHMADQULOVA tayyorladi

Matematika fanidan test savollari

№	Savol	A	B	C	D
1.	Quyidagi sonlardan nechitasi butun son bo'ladi? $\frac{18}{12}; 13; \frac{48}{16}; 0; 3\frac{7}{15}; -5; -3,14$	4	3	5	6
2.	1; 3; 5 va 15 ga qoldiqsiz bo'linadigan eng kichik natural sonni toping.	15	30	45	60
3.	Amallarni bajarib: $(132+18):5-3-10$	80	90	0	210
4.	Hisoblang: $(1534-1019)+2019$	2534	2354	2453	2345
5.	2 kg shakar 10400 so'm bo'lsa, 3 kg 500 g shakar nechta so'm bo'ladi?	18200	19000	18000	18500
6.	Dushanba soat 15:00 dan nechta soat vaqt o'tgach ertasiga soat 11:00 bo'ladi?	20	21	19	22
7.	Hisoblang: $(10\frac{1}{2}-7\frac{1}{3})\cdot\frac{19}{12}$	2	2,5	3	1,5
8.	Agar $a=(10\frac{1}{2}-7\frac{1}{3})\cdot\frac{19}{12}$; $b=1+\frac{1}{20}$ va $c=1+\frac{1}{30}$ bo'lsa, a , b va c larni o'sish tartibida joylashtiring.	$c < b < a$	$a < c < b$	$a < b < c$	$b < a < c$
9.	Qishga tayyorlab qo'yilgan 500 tonna ko'mirning 30% dekabr oyida, 35% esa yanvar oyida ishlatilgan. Yanvar oyida dekabr oyidagiga qaraganda nechta tonna ko'p ko'mir ishlatilgan?	25	20	35	15
10.	20 foizi 180000 ga teng bo'lgan sonni toping.	900000	360000	90000	36000
11.	To'g'ri burchakli parallelepipedning nechta yog'i bor?	6	4	12	8
12.	Rasmda tasvirlangan parallelepiped ichiga ko'pi bilan yana nechta xuddi shunday kub joylashtirish mumkin?	42	43	44	40
13.	$a=12$ bo'lsa, to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.	54	52	27	26
14.	$\alpha=27$, $\rho=?$	83	81	82	84
15.	Jismining hajmini (m^3) toping.	111	114	108	110







16.	Rasmdan foydalanib, ikki nur orasidagi burchakning kattaligini aniqlang.	20	160	30	180													
17.	5 ta kvadrat rasmda ko'rsatilganek tasvirlangan. $AB=10$ bo'lsa, kvadrlar perimetrlari yig'indisini toping.	40	50	20	100													
18.	Chizmadagi qonuniyat bo'yicha keyingi qadamni toping.																	
19.	304786 sonining raqamlari o'rnini almashtirib, eng katta sonni hosil qiling.	876430	786430	678430	867430													
20.	9786 sonining raqamlari o'rnini almashtirib, eng kichik sonni hosil qiling.	6789	6987	6897	6879													
21.	Amallarning bajarilish tartibini aniqlang. $112^a - 25 \cdot 2^b + 63 \cdot 6^c$	b, d, a, c	a, b, d, b	c, a, d, b	c, d, a, b													
22.	$12^3 - (24 : 3 + 18)$ ifodaning qiymatini hisoblashda ayirish amali nechanchi tartibda bajariladi?	to'rtinchi	ikkinchi	uchinchi	birinchi													
23.	Quyidagi grafik asosida to'g'ri ma'lumotni toping.		Soat 09:00 da harorat 20°C bo'lgan.	Soat 12:00 da harorat 22°C bo'lgan.	Soat 15:00 da harorat 23°C bo'lgan.													
24.	Quyidagi grafik asosida to'g'ri ma'lumotni toping.		Soat 15:00 da harorat 25°C bo'lgan.	Soat 12:00 da harorat 22°C bo'lgan.	Soat 09:00 da harorat 25°C bo'lgan.													
25.	$5 m^2 48 dm^2 = ? dm^2$	548	240	485	584													
26.	Litrdan ifodalang: $4 dm^3 400 cm^3$	4,4	44	4,04	0,44													
27.	A mulohaza " $125 > 15 \cdot 6 + 30$ ", B mulohaza esa " 2 bilan tugagan sonlar 12 ga qoldiqsiz bo'linadi". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.	A rost va B yolg'on	A va B rost	A yolg'on va B rost	A va B yolg'on													
28.	A mulohaza " 2 tub son", B mulohaza esa " 2 juft son". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.	A va B rost	A yolg'on va B rost	A rost va B yolg'on	A va B yolg'on													
29.	Jadvaldan foydalanib, xaridning umumiy to'lovini (so'm) toping.	<table border="1"> <tr><th>Nomi</th><th>Narxi (so'm)</th><th>kg</th></tr> <tr><td>Tarvuz</td><td>6000</td><td>5</td></tr> <tr><td>Qovun</td><td>12000</td><td>4</td></tr> <tr><td>Oshqovoq</td><td>3000</td><td>6</td></tr> </table>	Nomi	Narxi (so'm)	kg	Tarvuz	6000	5	Qovun	12000	4	Oshqovoq	3000	6	96000	90000	100000	92000
Nomi	Narxi (so'm)	kg																
Tarvuz	6000	5																
Qovun	12000	4																
Oshqovoq	3000	6																
30.	Jadvaldan foydalanib, xaridning umumiy to'lovini (so'm) toping.	<table border="1"> <tr><th>Nomi</th><th>Narxi (so'm)</th><th>kg</th></tr> <tr><td>Pomidor</td><td>9000</td><td>3</td></tr> <tr><td>Bodring</td><td>6000</td><td>4</td></tr> <tr><td>Baqlajon</td><td>3000</td><td>5</td></tr> </table>	Nomi	Narxi (so'm)	kg	Pomidor	9000	3	Bodring	6000	4	Baqlajon	3000	5	66000	60000	63000	65000
Nomi	Narxi (so'm)	kg																
Pomidor	9000	3																
Bodring	6000	4																
Baqlajon	3000	5																







Biologiya fanidan test savollari

№	Savol	A	B	C	D
1.	O'pka orqali nafas oladigan germafrodit organizmlari aniqlang. 1) qizil chuvalchang; 2) bedapoya shillig'i; 3) dreysena; 4) krevetka; 5) jigar qurti; 6) chuchuk suv shillig'i; 7) midiya; 8) odam askaridasi.	1, 5	4, 8	3, 7	2, 6
2.	Qirg'uloqlar barglarining ostki tomonida yoki chetida joylashgan qo'ng'ir rangli bo'rtna nima deb ataladi?	sorus	sporofill	arxegoniy	gametofit
3.	Issiqqonli organizmlar berilgan javobni aniqlang.	musicha, zog'cha, ko'rshapalak	chittak, qilquyruq, to'ti	ukki, koala, aureliya	silovsin, gaviyal, kenguru
4.	To'rt kamerali yurakka ega issiqqonli organizmlari aniqlang.	qashqaldoq, qunduz, qulon	latcha, latimeriya, alligator	jayron, jirafa, gaviyal	yelik, yaguar, timsoh
5.	Nam sharoitda o'sadigan o'simliklarga mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) gigrofitlar deb ataladi; 2) gidrofitlar deb ataladi; 3) ularga clodeya, nilufar misol bo'ladi; 4) ularga qo'g'a, qamish, ro'vak o'simliklari misol bo'la oladi.	1, 4	2, 3	1, 3	2, 4
6.	Odamlarda sochning jingalakligi silliqiligi ustidan, teri rangining qora bo'lishi oq bo'lishi ustidan chala dominantlik qiladi. Geterozigotalarda sochi to'lqinsimon, teri rangi oraliq bo'ladi. To'lqinsimon sochli, teri rangi oraliq yigiti to'lqinsimon sochli terisi oq qizga uylandi. Nazariy jihatdan, ushbu nikohdan tug'iladigan farzandlarning necha foizi jingalak sochli bo'lishi mumkin?	25	12,5	50	0
7.	Qaldirg'ochning orqa tomoni ko'kimir rangda bo'lishi (A) qizg'ish bo'lishi (a) ustidan dominantlik qiladi. Lekin bu belgilar genotipda B geni bo'lmasa yuzaga chiqmaydi, natijada qoramtir rang paydo bo'ladi. Digeterozigota qaldirg'ochlar o'zaro chatishtirilganda, olingan avlodlarning fenotipik nisbati to'g'ri berilgan javobni aniqlang.	9:3:4	9:7	9:3:3:1	13:3
8.	Mushuklarda yungining kalta bo'lishi uzun bo'lishi ustidan, yungida oq dog'larning bo'lishini ta'minlovchi gen dog'ni yuzaga chiqarmaydigan gen ustidan to'liq dominantlik qiladi. Kalta yungli oq dog'lari bor mushuklar o'zaro chatishtirilganda nazariy jihatdan 752 ta mushukcha olingan. Ulardan 141 tasi uzun yungli oq dog'li, 47 tasi uzun yungli dog'siz mushukcha bo'lsa, kalta yungli oq dog'siz mushukchalarning sonini toping.	141	423	282	188
9.	Epiteliy to'qimasi uchun to'g'ri berilgan fikrni aniqlang.	teri epiteliysi murtak varaqasining ektoderma qavatidan rivojlanadi	ichakning ichki yuzasi kubtsimon va yassi epiteliydan iborat	rombsimon muskulning tashqi yuzasini qoplab turadi	bilak suyagining yuzasini qoplab turadi
10.	Sog'lom odamda epiteliy to'qimasi uchun berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.	teri epiteliy hujayrasi mitoz sikli metafazasida 44 ta autosoma xromosomasiga ega	ichak epiteliysi murtak varaqasining ektoderma qavatidan hosil bo'ladi	trapetsiyasimon muskulning tashqi yuzasini qoplab turadi	son suyagining yuzasini qoplab turadi
11.	Silliq to'liq muskulning skelet muskullaridan farqlarini aniqlang. 1) bir yadroli; 2) ko'p yadroli; 3) duksimon shakliga ega; 4) siydik chiqarish yo'llarida joylashgan; 5) harakati odam ixtiyoriga bog'liq.	1, 4	2, 5	1, 5	2, 3
12.	Nostok hujayrasida sodir bo'ladigan jarayonlarni aniqlang. 1) fermentlar yordamida DNK reduplikatsiyasi; 2) yadroda transkripsiyaning amalga oshishi; 3) silliq endoplazmatik to'rt yag' sintezi; 4) genetik kod asosida oqsil biosintezining amalga oshishi; 5) fotosintez jarayonining kechishi; 6) sitoskelet elementlari yordamida hujayra ichki tuzilmalari harakati.	1, 5	3, 6	4, 6	3, 5
13.	Kuydirgi kasalligining qo'zg'atuvchisiga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlang. 1) eukariot organizm; 2) prokariot organizm; 3) lizosomaga ega; 4) mitoz usulida ko'payadi; 5) mitoxondriyaga ega; 6) geteretrof	2, 6	3, 5	1, 4	2, 5
14.	DNK fragmentining bir zanjiri 1050 ta nukleotiddan iborat bo'lib, DNK qo'sh zanjiridagi timin nukleotidlari 10%ni tashkil etadi. Fragmentdagi guanin va sitozin nukleotidlari orasidagi vododod bog'lar sonini aniqlang.	2520	1680	1260	2250
15.	Naysimon suyaklar berilgan javobni aniqlang. a) qovurg'a; b) umurtqa; c) yelka; d) son	c, d	a, d	a, b	b, c

№	Savol	A	B	C	D
1.	O'pka orqali nafas oladigan germafrodit organizmlari aniqlang. 1) qizil chuvalchang; 2) bedapoya shillig'i; 3) dreysena; 4) krevetka; 5) jigar qurti; 6) chuchuk suv shillig'i; 7) midiya; 8) odam askaridasi.	1, 5	4, 8	3, 7	2, 6
2.	Qirg'uloqlar barglarining ostki tomonida yoki chetida joylashgan qo'ng'ir rangli bo'rtna nima deb ataladi?	sorus	sporofill	arxegoniy	gametofit
3.	Issiqqonli organizmlar berilgan javobni aniqlang.	musicha, zog'cha, ko'rshapalak	chittak, qilquyruq, to'ti	ukki, koala, aureliya	silovsin, gaviyal, kenguru
4.	To'rt kamerali yurakka ega issiqqonli organizmlari aniqlang.	qashqaldoq, qunduz, qulon	latcha, latimeriya, alligator	jayron, jirafa, gaviyal	yelik, yaguar, timsoh
5.	Nam sharoitda o'sadigan o'simliklarga mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) gigrofitlar deb ataladi; 2) gidrofitlar deb ataladi; 3) ularga clodeya, nilufar misol bo'ladi; 4) ularga qo'g'a, qamish, ro'vak o'simliklari misol bo'la oladi.	1, 4	2, 3	1, 3	2, 4
6.	Odamlarda sochning jingalakligi silliqiligi ustidan, teri rangining qora bo'lishi oq bo'lishi ustidan chala dominantlik qiladi. Geterozigotalarda sochi to'lqinsimon, teri rangi oraliq bo'ladi. To'lqinsimon sochli, teri rangi oraliq yigiti to'lqinsimon sochli terisi oq qizga uylandi. Nazariy jihatdan, ushbu nikohdan tug'iladigan farzandlarning necha foizi jingalak sochli bo'lishi mumkin?	25	12,5	50	0
7.	Qaldirg'ochning orqa tomoni ko'kimir rangda bo'lishi (A) qizg'ish bo'lishi (a) ustidan dominantlik qiladi. Lekin bu belgilar genotipda B geni bo'lmasa yuzaga chiqmaydi, natijada qoramtir rang paydo bo'ladi. Digeterozigota qaldirg'ochlar o'zaro chatishtirilganda, olingan avlodlarning fenotipik nisbati to'g'ri berilgan javobni aniqlang.	9:3:4	9:7	9:3:3:1	13:3
8.	Mushuklarda yungining kalta bo'lishi uzun bo'lishi ustidan, yungida oq dog'larning bo'lishini ta'minlovchi gen dog'ni yuzaga chiqarmaydigan gen ustidan to'liq dominantlik qiladi. Kalta yungli oq dog'lari bor mushuklar o'zaro chatishtirilganda nazariy jihatdan 752 ta mushukcha olingan. Ulardan 141 tasi uzun yungli oq dog'li, 47 tasi uzun yungli dog'siz mushukcha bo'lsa, kalta yungli oq dog'siz mushukchalarning sonini toping.	141	423	282	188
9.	Epiteliy to'qimasi uchun to'g'ri berilgan fikrni aniqlang.	teri epiteliysi murtak varaqasining ektoderma qavatidan rivojlanadi	ichakning ichki yuzasi kubtsimon va yassi epiteliydan iborat	rombsimon muskulning tashqi yuzasini qoplab turadi	bilak suyagining yuzasini qoplab turadi
10.	Sog'lom odamda epiteliy to'qimasi uchun berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.	teri epiteliy hujayrasi mitoz sikli metafazasida 44 ta autosoma xromosomasiga ega	ichak epiteliysi murtak varaqasining ektoderma qavatidan hosil bo'ladi	trapetsiyasimon muskulning tashqi yuzasini qoplab turadi	son suyagining yuzasini qoplab turadi
11.	Silliq to'liq muskulning skelet muskullaridan farqlarini aniqlang. 1) bir yadroli; 2) ko'p yadroli; 3) duksimon shakliga ega; 4) siydik chiqarish yo'llarida joylashgan; 5) harakati odam ixtiyoriga bog'liq.	1, 4	2, 5	1, 5	2, 3
12.	Nostok hujayrasida sodir bo'ladigan jarayonlarni aniqlang. 1) fermentlar yordamida DNK reduplikatsiyasi; 2) yadroda transkripsiyaning amalga oshishi; 3) silliq endoplazmatik to'rt yag' sintezi; 4) genetik kod asosida oqsil biosintezining amalga oshishi; 5) fotosintez jarayonining kechishi; 6) sitoskelet elementlari yordamida hujayra ichki tuzilmalari harakati.	1, 5	3, 6	4, 6	3, 5
13.	Kuydirgi kasalligining qo'zg'atuvchisiga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlang. 1) eukariot organizm; 2) prokariot organizm; 3) lizosomaga ega; 4) mitoz usulida ko'payadi; 5) mitoxondriyaga ega; 6) geteretrof	2, 6	3, 5	1, 4	2, 5
14.	DNK fragmentining bir zanjiri 1050 ta nukleotiddan iborat bo'lib, DNK qo'sh zanjiridagi timin nukleotidlari 10%ni tashkil etadi. Fragmentdagi guanin va sitozin nukleotidlari orasidagi vododod bog'lar sonini aniqlang.	2520	1680	1260	2250
15.	Naysimon suyaklar berilgan javobni aniqlang. a) qovurg'a; b) umurtqa; c) yelka; d) son	c, d	a, d	a, b	b, c

Fizika fanidan test savollari

№	Savol	A	B	C	D
1.	Quyida jism koordinatasining vaqtga bog'lanish grafiqi berilgan. Jisimning ko'chishini (m) aniqlang. 	0	20	60	30
2.	Quyida jism koordinatasining vaqtga bog'lanish grafiqi berilgan. Jisimning ko'chishini (m) aniqlang. 	0	12	36	-6
3.	\vec{a} va \vec{b} vektorlar berilgan, ularning modullari $ \vec{a} =11$ va $ \vec{b} =6$. $\vec{c} = \vec{a} + \vec{b}$ bo'lsa, keltirilgan javoblarning qaysilari \vec{C} vektorning moduli bo'lishi mumkin?	8; 16	4; 16	2; 8; 16	8; 16; 23
4.	Boshlang'ich teziqsiz erkin tushayotgan jism 3-sekundda qancha yo'l (m) bosadi? $g=10 \text{ m/s}^2$	25	30	20	15
5.	Oydagi tajribada 1-jism tik yuqoriga 20 m/s tezlik bilan otildi, 2 s o'tgach 2-jism birinchisining ketidan yana shunday tezlik bilan tik otildi. 1-jism qancha vaqt (s) parvoz qilgach 2-jism bilan to'qnashadi? $g=5/3 \text{ m/s}^2$	13	14	15	10,5
6.	Oydagi tajribada 1-jism tik yuqoriga 25 m/s tezlik bilan otildi, 24 s o'tgach 2-jism birinchisining ketidan yana shunday tezlik bilan tik otildi. To'qnashuv nuqtasida ularning bosgan yo'llarining farqi qancha (m) bo'lgan? $g=5/3 \text{ m/s}^2$	327	140/3	282	240
7.	Jisimning (0-6) s vaqt intervalidagi ko'chishini (m) toping. 	8	40	24	32
8.	Jism 20 m balandlikdan erkin qo'yib yuborildi. U yerga urilib yana avvalgi balandlikkacha ko'tarildi. Oy o'qining musbat yo'nalishi sifatida jisimning yerga tushish yo'nalishini qabul qilib, jisimning tezlik grafigini ko'rsating. $g=10 \text{ m/s}^2$ 				
9.	Yerga nisbatan $v_1=4 \text{ m/s}$, $v_2=3 \text{ m/s}$ tezliklar bilan harakatlanayotgan platformalar ustida platformalarga nisbatan $v_{10}=3 \text{ m/s}$, $v_{20}=4 \text{ m/s}$ tezliklar bilan ikki odam rasmda ko'rsatilganidek harakatlanmoqda. Odamlarning nisbiy tezligi (m/s) qanday? (odamning harakati platformaning harakatiga ta'sir ko'rsatmaydi) 	0	7	1	2
10.	Rasmda sirpanmasdan dumalayotgan disk tasvirlangan. Agar uning O nuqtasining yerga nisbatan tezligi 6 m/s bo'lsa, B nuqtasining D nuqtasiga nisbatan tezligi (m/s) qanday? 	12	6	24	$12\sqrt{2}$
11.	Jism boshlang'ich teziqsiz tekis tezlanuvchan harakat qilgan. Agar yo'lining ikkinchi yarmini 10 minutda bosib o'tgan bo'lsa, yo'lining birinchi yarmini qancha vaqtda (min) bosib o'tgan?	$10(\sqrt{2} + 1)$	$10(\sqrt{2} - 1)$	$10\sqrt{2}$	20

№	Savol	A	B	C	D
12.	6 kg massali yuk AB va BC chilvirlar bilan osib qo'yilgan. BC chilvirning tarangligi (N) topilsin. $\alpha=30^\circ$, $g=10 \text{ m/s}^2$. 	104	85	70	128
13.	6 kg massali yuk AB va BC chilvirlar bilan osib qo'yilgan. BC chilvirning tarangligi (N) topilsin. $\alpha=150^\circ$, $g=10 \text{ m/s}^2$. 	104	93	141	128
14.	Bir jinsli M massali sterjen rasmda ko'rsatilganidek $m_1=8 \text{ kg}$ va $m_2=6 \text{ kg}$ massali yuklar bilan muvozanatga keltirilgan. M massani (kg) aniqlang. 	3	6	1	4
15.	Bir jinsli M=3 kg massali sterjen rasmda ko'rsatilganidek m_1 va m_2 massali yuklar bilan muvozanatga keltirilgan. Agar $m_1+m_2=4 \text{ kg}$ bo'lsa, m_1 massani (kg) aniqlang. 	3	2,5	2	1,5
16.	Massalari $m_1=2 \text{ kg}$ va $m_2=4 \text{ kg}$ bo'lgan jismlar rasmda ko'rsatilganidek muvozanatda turibdi. Agar prujinalarning bikritliklari uchun $k_1=k_2=2 \text{ kN/m}$ munosabat o'rinni bo'lsa, ularning mos holdagi cho'zilishlarining yig'indisi $\Delta x_1 + \Delta x_2$ ni (cm) aniqlang. $g=10 \text{ m/s}^2$ 	4	1	2	3
17.	Bir jinsli M=1 kg massali sterjen m_1 va m_2 massali yuklar bilan rasmda ko'rsatilganidek muvozanatga keltirilgan. Agar $m_1=1,5 \text{ kg}$ bo'lsa, m_2 massani (kg) aniqlang. 	1	2	0,5	1,2
18.	Yer sirtidan qanday balandlikda erkin tushish tezlanishi g ning qiymati n marta kamayadi? Yerning radiusi R. $(\sqrt{n}-1)R$ $(\sqrt{n}+1)R$ $(\sqrt{n}-2)R$ $(\sqrt{2n}-1)R$				
19.	32 kg massali jism 400 N kuch bilan tik yuqoriga ko'tarilmoqda. Jism 42 m balandlikka ko'tarilganda kuchning bajargan ishi (J) nimaga teng?	16800	13440	14400	18200
20.	Reaktiv dvigateldan har sekundda 12 kg gaz 3200 m/s tezlik bilan chiqmoqda. Dvigateling torish kuchi (kN) qanday?	38,4	40,8	57,6	70,4

Alimov Zuxriddin Isamutdinovichning 07.00.08 — Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot metodlari ixtisosligi bo'yicha "Arab tilidagi manbalarda Toshkent vohasi tarixiy geografiyasi (IX–XIII asrlar)" mavzusidagi (tarix fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Kabirova Nargiza Qahramonovnaning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Rahnavard Zaryob hikoyalarning poetikasi (obrazlar talqini, badiiy tasvir va uslub masalalari)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Aytobev Mansurbek Yusupovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida tashkil etilgan xalq qabulxonalarining ijtimoiy ahamiyati" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 4-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Xadjiyev Umrbek Shonazarovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Yoshlarning tafakkurini shakllantirishda sharqona ma'naviy-axloqiy imperativlarning o'rni" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 5-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Qurbaniazova Raushana Qurbanbayevnaning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Davriy ruhi o'zgarishlarining ijtimoiy mentalitetga ta'siri" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 3-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Ismoilov Temurbek Islomovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi va bandligini ta'minlashning institutsional tizimi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 5-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Siddiqov Ilyosjon Baxromovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Yoshlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 4-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Primov Baxriddin Abdurahmanovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Axborot oqimi jadalashuvining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'siri (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 3-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Mukimov Bayramali Raximovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarning mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish (Kasb ta'limi yo'nalishlari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruvi hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyov ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71)246-92-17; e-mail: moqt@markaz.uz

Yakubova Oltinoy Abdug'aniyevnaning 14.00.01 — "Yuvenil dismenoreyani aniqlashni mukammallashtirish va davolashga taqqoslama yondashish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 3-iyun kuni soat 12:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevnaning 09.00.02 — Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (estetika) ixtisosligi bo'yicha "Shaxs estetik ongining shakllanishida san'atning o'rni va sinergetik xususiyati" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 6-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

An Andrey Vladimirovichning 14.00.01 — "Tang holatlardagi homilador ayollarga tibbiy yordam sifatini oshirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 3-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Oserbayeva Alfiya Kurbanbayevnaning 02.00.04 — Fizik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Tuzli va vodorodsulfidli eritmalarida uglerodli polatlarning korrozionalanishini aminlar bilan ingibirlashning fizik-kimyoviy qonuniyatlari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 9-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-11-40; e-mail: devonxona@samdu.uz

Mirzaaliyev Ikboljon Mirzakarimovichning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi ("Devonu lug'ati-turk" materiali misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-iyun kuni soat 09:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-34-24, 233-52-24; e-mail: info@tashgiv.uz

Ashurov Baxtiyor Shokirovichning 17.00.02 — Musiqi san'ati ixtisosligi bo'yicha "XVI–XVII asrlarda milliy musiqiy tafakkur rivojining zamonaviy talqini (Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiy "Risolayi musiqiy"lari asosida)" mavzusidagi (san'atshunoslik fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 4-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

Ergasheva Farog'at Sheraliyevnaning 03.00.07 — O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi hamda 03.00.08 — Odam va hayvonlar fiziologiyasi ixtisosliklari bo'yicha "Mahalliy anor (Punica granatum L.) navlarining fiziologik-biokimyoviy, farmakologik xususiyatlari va mikroklonlash istiqbollari" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2020-yil 12-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Ummatov Akram Axmedovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Malakali voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyatini shakllantirish va uni baholash metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Tojiyev Muzaffarjon Akbarovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yosh gimnastikachilar boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida o'quv mashg'ulot jarayonining tuzilishi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-iyun kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Xotira

Dadil aka

Umrining 50 yili, hatto undan ham ko'p fursatini ta'lim-tarbiya ishiga bag'ishlagan ziyolilar ko'p. Ular orasida ezgu ishlari bilan hamkasblari, shogirdlari va mahalladoshlari qalbidan chuqur joy olgan haqiqiy muallim, jonkuyar tashkilotchi Malik Abdalimovning munosib o'rn bor edi.

Uning pedagogikaga bolalar yetakchiligidan kirib kelishi kelayotgan davrning barcha bo'g'inlarida muvaffaqiyat bilan ishlashiga asos bo'ldi. Tajriba to'plashi Toshkent shahridagi 201-maktabdan boshlandi. Bir paytning o'zida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining kechki bo'limida ham o'qidi. O'qishni tugatgach, shu maktabda boshlang'ich sinflarga dars berib, pedagogik mahoratini oshirdi. Tashkilotchilik qobiliyati sabab tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, biroz vaqt o'tgach, maktab direktori lavozimiga tayinlandi.

U davrlar maktablarga bugundek e'tibor berilmas, yaroqsiz eski binoda o'quv-tarbiya ishlari olib borish uchun hech qanday sharoit yo'q edi. Yosh direktor ishini maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdan boshladi. Obodonchilik ishlarini yo'lga qo'yish uchun mahalla jamoasi va ota-onalar qo'mitasini jalb qildi. Isitish tizimini yangiladi, oshxonani, mehnat ta'limi uchun bir nechta xonalar qurilishiga bosh bo'ldi. Lekin loyihasi qurilgan eski maktabni tartibga keltirish, zamonaviy asbob-uskunalar va o'quv qurollari bilan jihozlash mushkul edi. Tuman, shahar rahbariyatiga murojaatlar naf bermagach, respublika hukumatiga tinimsiz qatnadi. Nihoyat yangi maktab loyihasi tasdiqlandi, mablag' ajratilib, qurildi ham. Malik

Abdalimovning mehnati samarasi o'laroq bu maktab Toshkent shahrining ilg'or ta'lim muassasalari qatoridan joy oldi.

Mustaqillikning ikkinchi yilida M.Abdalimov Chilonzor tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri lavozimiga tayinlandi. 12 yil davomida tuman miqyosida ko'p tashabbuslar ko'rsatdi. U tashkil etgan "Olimpiada markazi" faoliyati natijasida, Davlat test markazi ma'lumotlariga ko'ra, 1997-1999-yillarda Toshkent shahri o'quvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirishi bo'yicha Chilonzor tumani birinchi o'rinni egalladi.

"Malik aka haqqo'y inson edi, ayniqsa, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatgan chog'i sohada yechimini kutayotgan muammo mavjudmi, uni turli darajadagi idoralarda, yig'ilishlarda rahbarlar oldiga dadillik bilan qo'yardi. Shu bois biz uni "Dadil aka" deb atardik. Ba'zi majlislarda hazil-lashib etagini tortib tursak-da, uni to'xtatish mahol bo'lardi. Chunki Malik aka ta'lim sohasi rivojiga to'siq bo'layotgan muammoni tezroq bartaraf etishga uringani uchun sukut saqlab o'tira olmasdi", deya xotirlaydi u bilan yelkama-yelka faoliyat ko'rsatgan hamkasbi, ta'lim fidoyisi To'lg'in aka Sultonov.

Kamina uning qurilishlar davrida xalq ta'limiga qo'yilgan bir vazir bilan munozarasiga guvoh bo'lganman. Yangi rahbar



o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida har bir ta'lim muassasasi rahbarligiga moliyachilarni tayinlay boshladi. Tekshirib, bo'lar-bo'lmas sabablarni ro'kach qilib ayrimlarini bo'shatdi. Malik aka yaxshigina obro'ga ega bo'lgani uchun hcmiylarni jalb etib, o'zi rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasasini ta'mirlab, obodonlashtirib, namunali mas-kanga aylantirgan edi. Asosiysi, barcha bu ta'lim dargohida o'z farzandini o'qitishga intila boshladi. Litseydagi muhit haqida bugun sobiq o'quvchilar, o'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlarda va rahbarning ishini qanday tashkil etgani, muallimlarni saralab olishi-yu ularga ko'rsatgan e'tiborini ta'kidlashmoqda. Otasidan ayrilgan o'quvchilar uni o'z otasidek ko'rganini yashirmaydi. Yillar davomida to'plagan tajribasi natijasida tashkil etgan maktab kelajagi uchun u katta majlisda hatto vazir bilan ham munozaraga kirishgani, o'z pozitsiyasini himoya qilgani, To'lg'in aka aytmoqchi, o'zi uchun emas, balki ta'lim sohasi rivoji uchun rahbariyatga qanchalik yoqmasa-da, fikrini baralla aytgani hamon ko'z o'ngimda jonlanadi.

Shijoati, bag'rikengligi, ezgu ishlari bilan do'stlari, hamkasblari, shogirdlari va mahalladoshlari qalbidan chuqur joy olgan Malik akani bugun oxirati obod bo'lsin, deya duo qilmoqdalar. Qilgan yaxshi amallari o'ziga hamroh bo'lsin, deymiz.

H.SAIDOV,
"Mehnat shuhrati"
ordeni sovrindori

E'zoz

Mamlakatda har bir soha o'z kasbini sevgan fidoyi, jonkuyar insonlar xizmatlari evaziga rivojlanadi. Bunday insonlar nafaqat o'z ishini sidqidildan bajaradi, balki boshqalarning ham vijdonan ishlashiga turtki beradi. Ular o'z ortidan yuzlab izdoshlarini ergashtiradi. Samarqandlik Shavkat Qo'shboqov ham ta'lim tizimini rivojlantirishga mana shunday katta hissa qo'shib kelayotgan fidoyi insonlardan.

Har bir ishi ibrat

Sh.Qo'shboqov 1968-yili Qo'sh-rabot tumanidagi ziyoli oilada tug'ilgan. O'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan yosh yigit 1994-yili Ukraina davlat pedagogika institutini tamomlaydi.

Ilk mehnat faoliyatini Qo'shrabot tumanining chekka qishloqlaridan biri - Qizilbeldagi 14-maktabda rus tili o'qituvchisi sifatida boshlab, keyinchalik maktab direktori lavozimida faoliyat olib borgan. Qishloq uncha katta bo'lmagani sababli o'sha paytlarda maktabning har bir sinfida 10-12 nafar o'quvchi ta'lim olardi. Bu maktabda o'qigan o'quvchilarning ko'pchiligi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'lgan. Ular hozir turli sohalarda o'z mehnat faoliyatini olib bormoqda. Albatta, bu ishlar ortida mehnatkash ustoz-muallimlar hamda adolati, mehribon, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan Shavkat Qo'shboqovning mehnatlari beqiyos edi.

U kishining yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borgan ishlari ham ko'pchilikka ibrat. Har o'quv yili so'ngida namunali va lochi o'quvchilarni o'z hisobidan Samarqand shahriga olib borib, buyuk bobokalonlarimiz Imom Buxoriy, Amir Temur maqbarasi, Registon, Shohizinda majmuasi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va muzeyi kabi xalqimiz tomonidan asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan arxeologik yodgorliklar, me'moriy obidalar va muqaddas qadamlariga ekskursiyalar tashkil qilib kelgan.

Hozirda Qo'shrabot tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Shavkat Qo'shboqov tuman maktablarida ta'lim sifatini oshirish yo'lida astoydil mehnat qilmoqda.

O'rolboy XOLIQAAROV,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti
dotsenti

Ismoil otaning orzusi

Nurota tumani, Gojimsayning Tegirmonovulida 1950-yilning 20-aprelida Ismoil ota va Ulbozor ona xonadonida to'ng'ich farzand dunyoga keldi. Unga katta orzu-niyatlar bilan Ko'baymurod deb ism berishdi.

Ismoil ota o'g'lining dono hamda xalq ardog'idagi inson bo'lishini orzu qilar edi. Shu tufayli o'g'lining yaxshi o'qishi uchun qo'ldan kelgan barcha sharoitni yaratishga harakat qildi.

Ko'baymurod yuqori sinflarda o'qib yurgan kezlarda, yoz oylari Tegirmonovuldan chiqqan yosh olim Toshpo'lat Shirinqulov har yili qishloqqa kelar edi. O'spirin yigitni olimning so'zlari o'ziga ohanarabdek tortar, go'yo sehrlanib qolgandek bo'lar edi.

Men ham olim bo'laman, derdi Ko'baymurod. Bu otaning dilidagi gap edi.

Shundan so'ng, u g'ayrat bilan qattiq o'qishga kirishdi, maktabni a'lo baholarga tugatdi. Mexanik

bo'lish uchun 1968-yili Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga o'qishga kirdi. Besh yil davomida akademik Qori-Niyoziy, akademik O.Lebedev hamda professor S.Po'latov singari mashhur ustozlardan ta'lim oldi va oliy toifali, amaliy mashinamexanizmlar mexanigi bo'lib yetishdi.

Institutni tamomlab, 1972-yili yo'llanma bilan Jomboy tuman qishloq xo'jaligi texnikasi birlashmasiga ishga yuborildi. Ishda tajriba va malakasini oshirdi. Besh yillik samarali faoliyat Ko'baymurod uchun ilmiy ish bilan shug'ullanishga katta tajriba, amaliyot va tayanch maktabi bo'ldi.

Ilmiy ish bilan shug'ullanishdek orzusini ro'yogga chiqarish uchun u 1977-yili Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Materiallar qarshiligi" kafedrasida assistent lavozimida pedagog va ilmiy faoliyatini boshladi. Oradan bir yil o'tgach Moskva muhandislik-qurilish instituti "Materiallar qarshiligi" kafedrasida mashhur olim I.Surkov rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bordi. Aspiranturaga kirib ilmiy izlanishlarni yanada jadallashtirdi, natijada mud-datidan oldin "Bikir halqalar bilan mahkamlangan yuqqa devorli yopiq silindrga parallel bo'yab bosim ta'sir etganda elastiklik chegarasidan tashqarida kuchlanish va deformatsiyani taqchil etish" mavzusidagi fan va texnika uchun o'ta dolzarb bo'lgan muammoli masalani hal qilishga muvaffaq bo'lib, texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

Yosh olim yurtiga qaytib Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida "Qurilish mashinalari uskunalari va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish" kafedrasida dotsenti, "Mashinasozlik texnologiyasi va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish" kafedrasida mudiri, "Yerusti transporti tizimlari" kafedrasida mudiri lavozimlarida samarali mehnat qildi.

K.Ismoilov 2005-yil sentabr oyida "Elastiklik chegarasidan keyin sterjenlar, plastinkalar va qobiqlarning ustuvorligi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

Olimning 25 dan ortiq maqolalari nufuzli xorij jurnallarida chop etildi, 20 dan ortiq xalqaro anjumanlarda muammoli ma'ruzalar bilan ishtirok etib, dunyo olimlarining nazariga tushdi va hurmatiga sazovor bo'ldi. Qator monografiyalari ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilib, yuqori baholandi.

K.Ismoilov o'n beshdan ortiq darslik, jami 180 dan ortiq

ilmiy va uslubiy ishlar muallifi. Yana tahsinga loyiq tomoni shuki, domla "Elastik — plastik qobiqlar" va "Elastik plastik plastinkalar hisobi" o'quv qo'llanmalari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, Xalq ta'lim vazirliklari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi tomonidan "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" 2010-va 2013-yillari respublika tanlovida qatnashib faxrli birinchi o'rinda sazovor bo'lgan.

Professor Ko'baymurod Ismoilov doim fan qo'ynida yashaydi, shu muhitdan nafas oladi. U kishi o'ta kamtar, kamgap, fidoyi inson. Umr yo'ldoshi Hakimayoy aya bilan besh farzandni tarbiyalab, el koriga yaraydigan inson qilib tarbiyaladi.

X.TO'RAYEV,
texnika fanlari doktori,
professor

Raximov Azizjon Xayyoyevichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Qandli diabet bilan xastalangan bemor oyoqlari kritik ishemiyasida takomillashtirilgan bol'dir amputatsiyasi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-iyun kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Navoiy ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: www.buhme@mail.ru

Ziyayeva Sevara Anvarovning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili) ixtisosligi bo'yicha "Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu info@mail.ru

Akbarova Shaxnoza Xikmatullayevaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili) ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-iyun kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu info@mail.ru

Boltayev Timur Shavkatovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Yumshoq to'qimalar yiringli jarohatlarini kombinirlangan fizik-kimyoviy usulda davolash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-iyun kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200100, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Jurayev Nodir Yodgorovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy ohaktosh qo'shimchali eksportga mo'ljallangan modifikatsiyalangan ammiakli selitra texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 5-iyun kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru

Rafiqova Nodiraxon A'zamovning 11.00.05 — "Tabiat va jamiyat munosabatlarini optimallashtirishning ekologik-geografik asoslari (O'zbekiston hududi misolida)" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.G.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 12-iyun kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Bauatdinov Salining 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston agrorudalari asosida yangi turdagi murakkab-aralashmali o'g'itlar olishning resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 5-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich 02.00.11 — Kolloid va membrana kimyosi ixtisosligi bo'yicha "Og'ir neftlarning yuqori turg'un suv nefli emulsiyalarini parchalashda qo'llaniladigan deemulgatorlar kompozitsiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 8-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru

Yarabayev Azamat Asrorovichning 02.00.11 — "Kolloid va membrana kimyosi" ixtisosligi bo'yicha "Dizel moylarining kolloid-kimyoviy xususiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 9-iyun kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va Zoom dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi katta ilmiy xodim, filologiya fanlari doktori Sanobar To'laganovaga onasi **Zumrat aya G'AFFOROVAning** vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti jamoasi universitetda ko'p yillardan beri mehnat qilib kelayotgan Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i

Bahriddin XOLMIRZAYEVning vafot etganligi munosabati bilan oila a'zolariga ta'ziya izhor qiladi.

Qurilish boshladingizmi? Sizlarga yordam beramiz!

Yoz — qurilish ishlarini boshlash uchun ayni davr. Buning uchun har qanday bino yoki obyekt asosini yaratishda sifatli metall konstruksiyadan foydalanish talab etiladi.

Metall konstruksiya o'zi nima?

Metall konstruksiyalar o'lchami, tayyorlanish usuli, konfiguratsiyasi va qo'llanilishi jihatidan farqlanadi. Metall konstruksiyalar, shuningdek, temir-beton konstruksiyalarga qaraganda qator ustun jihatlarga ham ega:

- * vazni yengilligi;
 - * montaj hamda demontaj ishlarining qulayligi;
 - * quruvchilarga tashishning osonligi;
 - * tezlik bilan tiklash imkoniyati.
- O'zbekistonda "NURAFSHON SULTON METALL" MChJ metall konstruksiyalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi kompaniya sanaladi. Kompaniya bir necha yillardan beri ko'plab mijozlarga sifatli metall konstruksiyalarni yetkazib bermoqda. Shuningdek, kislodovsk va boshqa har xil modullar, angarlarni mon-

taj va demontaj ishlarini ham bajaradi.

Mijoz talabi va istagiga mos taklif

Kompaniya nafaqat ma'lum bir turdagi konstruksiyalarni, balki buyurtmachi xohish-istagidan kelib chiqqan holda nostandard modellarni ham ishlab chiqaradi. Bunday ishlar, shubhasiz, maxsus chizmalar va texnik ishlanmalar yordami-da amalga oshiriladi.


Qo'shimcha qulayliklar

Kompaniya turli xildagi metall konstruksiyalarni MDH davlatlaridan keltiradi. Bundan tashqari, turli murakkablikda bo'lgan metall qurilmalarni boshqa joyga ko'chirishda professional xizmat turini taklif etadi. Bunda obyektning to'laonli eski holda joyga o'rnatilishi ta'minlanadi.

Agarda konstruksiyalar ta'mirlalab bo'lsa, kompaniya sizga yangidan ta'mirlalab, qayta ishlab beradi.

Professional yondashuv

Metall konstruksiyalarni loyihalash, ularni ishlab chiqarish va montaj qil-



ishda o'z ishining ustalariga murojaat qilish foydadan emasligi sir emas. Shu sababli, "NURAFSHON SULTON METALL" konstruksiyalari ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan yetuk mutaxassis va muhandislar tomonidan ishlab chiqariladi.

ngizni yuqori sifatda bajarib berishi kafolatlanadi!

Yangi imorat qurish arafasidamisiz? Yoki metall konstruksiyani boshqa obyektga ko'chirish niyatidamisiz? U holda "NURAFSHON SULTON METALL" MChJ kompaniyasi xizmatizingizda.

Murojaat uchun telefon:

(93) 181-98-88, (91) 293-77-76,
(99) 887-09-52.

Nizmatlar litsenziyalangan!
Mahsulotlar sertifikatlangan!

Nashrimizga obuna bo'lishni istaganlar uchun "O'zbekiston pochta" AJ va "Matbuot tarqatuvchi" AKning hududiy filiallari telefon raqamlari havola etilmoqda.

"O'zbekiston pochta" AJning korxonalari telefon raqamlari

No	Hududiy filiallar	Telefon	No	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri filiali	(71) 233-73-56	8	Xorazm filiali	(62) 228-51-71
2	Andijon filiali	(74) 223-26-24	9	Surxondaryo filiali	(95) 501-01-95
3	Qoraqalpog'iston filiali	(61) 222-14-43	10	Toshkent filiali	(71) 268-22-56
4	Qashqadaryo filiali	(75) 221-04-62	11	Samarqand filiali	(66) 229-49-27 229-51-16
5	Jizzax filiali	(90) 538-02-69	12	Farg'ona filiali	(73) 244-47-79
6	Namangan filiali	(69) 233-03-67	13	Sirdaryo filiali	(95) 510-01-94
7	Buxoro filiali	(65) 223-48-93	14	Navoiy filiali	(91) 335-66-62

"Matbuot tarqatuvchi" AKning korxonalari telefon raqamlari

No	Hududiy filiallar	Telefon	No	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri	(71) 233-67-98	8	Xorazm viloyati	(62) 227-48-55
2	Andijon viloyati	(74) 223-82-13	9	Surxondaryo viloyati	(76) 221-91-18
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	(61) 222-88-63	10	Toshkent viloyati	(71) 199-76-66
4	Qashqadaryo viloyati	(75) 225-40-27	11	Samarqand viloyati	(66) 234-22-53
5	Jizzax viloyati	(72) 222-40-01	12	Farg'ona viloyati	(73) 244-50-77
6	Namangan viloyati	(69) 239-10-88	13	Sirdaryo viloyati	(67) 225-11-22 225-11-44
7	Buxoro viloyati	(65) 221-56-90	14	Navoiy viloyati	(36) 223-26-86

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: 233-99-15;

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz e-mail: info@marifat.uz [f /marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)



Barcha abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

"Marifat" gazetasi sahifalarida:

abituriyentlar uchun

DTM testlari darajasidagi
sinov testlari

o'qituvchilar uchun

PISA

PIRLS

TIMSS

testlaridan namunalar e'lon
qilina boshlandi.



Vaqtidan yutqazmang. Nashrimizga tezroq obuna bo'ling! Gazetaning o'z vaqtida yetib borishini istasangiz, "O'zbekiston pochta" AJ va "Matbuot tarqatuvchi" AKning hududiy filiallariga murojaat qiling!

"Marifat" gazetasiga 2020-yil uchun obuna davom etadi.

Bundan tashqari, o'tgan yilgi kirish imtihonidagi murakkab testlar yechimiga doir

SHARHLAR;

IZOHLAR;

O'QUV LUG'ATLARI

munozam berib boriladi. Shu bilan birga,

o'qituvchi-murabbiylar uchun

ATTESTATSIYA TESTLARIdan
namunalar ham e'lon qilinadi.



Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: (71) 233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz [f /marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, V-4175. Tiraj: 9621.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonalar — (71) 233-50-55;
kottibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mulkifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6